



# ULUG‘ AYYOM KUNLARI YURTIMIZDAGI BUNYODKORLIK MAHALLALARDAGI TINCHLIK-AHILLIK, ODAMLARDAGI MAMNUN KAYFIYAT BILAN UYG‘UNLIK KASB ETADI

## Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-mart kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.



Mamlakatimizda investorlarga yaratilgan qulayliklar tufayli iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushi oshib bormoqda. To‘g‘ridan to‘g‘ri sarmoyalar kiritilib, sanoat, qurilish, savdo, xizmat ko‘rsatish sohalarida istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanida barpo etilgan “High Town City” majmuasi shulardan biri. U keng qamrovli bo‘lib, savdo va ko‘ngilochar markazi, biznes markazi, mehmonxona va zamonaviy turar joylarni o‘z ichiga olgan. Bunga 510

million dollar to‘liq xorijiy investitsiya yo‘natilgan.

Davlatimiz rahbari savdo markazidagi zamonaviy tijorat va xizmat turlarini ko‘zdan kechirdi. 4 qavatli binoda savdo do‘konlari, jumladan, mashhur

brendlarning shoxobchalari ochilgan. Restoran va kafelar, ko‘ngilochar o‘yingohlar, sport maydonlari, kinoteatrlar el xizmatida. Yer ostida avtoturargoh bor.

Bir so‘z bilan aytganda, bu yerda odamlar savdo qilishi, dam olishi, sport bilan shug‘ullanib, vaqtini chog‘ o‘tkazishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Majmua bir kunda 5 ming kishiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega. Unda 1 ming 500 kishi ish bilan ta‘minlandi.

Prezidentimiz majmuaning iqtisodiy ahamiyati va aholi uchun qulayligini e‘tirof etib, investor va tadbirkorlarga ko‘mak berish bundan keyin ham davlatimiz siyosatining strategik yo‘nalishi bo‘lib qolishini ta‘kidladi. Milliy mahsulotlarimizni brendga aylantirish, ularni tashqi bozorlarda tanishtirish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

Savdo markazida shinam kitob do‘koni ham ochilgan. Shavkat Mirziyoyev bu tashabbusni olqishlab, metro bekatlari, kutish joylarida ham mo‘jaz kitob do‘konlari tashkil etish maqsadga muvofiqligini aytdi.

Davlatimiz rahbari o‘yin maydonchasidagi bolajonlarni ko‘rib, samimiy mehr-e‘tiborini izhor etdi. Bugungi barcha sa‘y-harakatlar mamlakatimiz kelajagi uchun qilinayotgani, buning uchun bolalar yaxshi o‘qib, aqliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirib borishi kerakligini ta‘kidladi.

Yaqinda 24 qavatli, besh yulduzli mehmonxona ham barpo etilishi rejalashtirilgan. Unda 250 ta xona bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 430 kishiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Katta

va kichik konferensiya zallari, suzish havzalari, restoran va do‘konlarda zamonaviy qulayliklar yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbariga shu yerda quriladigan zamonaviy uy-joylar loyihasi taqdimot qilindi. Unga ko‘ra, 1 ming 500 ta xonadondan iborat 28 ta ko‘p qavatli uy bunyod etiladi. Majmua hovlisi avtomobillar uchun yopiq va yashil hudud bo‘ladi. Bolalar bog‘chasi, o‘yin maydonchasi, tennis korti, yerosti avtoturargoh tashkil etiladi. Majmua hududi to‘liq Wi-Fi bilan qamrab olinadi hamda binolarda shovqinsiz liftlar o‘rnatiladi.

Toshkent shahrida jamoat transportini rivojlantirish loyihalari ham ko‘rib chiqildi. Ma‘lumki, Toshkent metropolitenini Toshkent traktor zavodi dahasigacha olib borish rejalashtirilgan. Prezidentimiz avval taqdim qilingan loyihalarni qayta ko‘rib chiqish, boshqa muqobil takliflar kiritish bo‘yicha topshiriq bergan edi. Shunga muvofiq tayyorlangan yangi loyihaga ko‘ra, metropolitenning Chilonzor yo‘nalishi Toshkent traktor zavodi dahasigacha uzaytiriladi. Bu tarmoq 30 ta mahalla, 148 ming aholini qamrab oladi.

Yana bir loyihaga ko‘ra, Bektemir tumanida Chirchiq daryosi yaqinida ko‘p qavatli uylar, savdo va xizmat binolari qurish ko‘zda tutilgan. Buning natijasida tumanida urbanizatsiya jadallashib, yangi markaz paydo bo‘ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Bektemir tumaniga tashrif chog‘ida Iyokta mahallasida bo‘lib, qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishdi.

Bu yerda 37 ta ko‘p qavatli uy va 1 ming 400 ta hovlida 6 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mamlakatimizda mahallabay amalga oshirilayotgan manzilli ishlar Iyoktada ham o‘z natijasini bermoqda. Yangi ko‘p qavatli uylar qurilgan. Yo‘laklar va ichki ko‘chalar ta‘mirlangan. Maydonchalarga gul va maysalar ekilgan.

O‘tgan yili uch qavatli mahalla idorasi foydalanishga topshirilgan edi. Endi davlat budjeti hisobidan 358-umuma‘lim maktabi qurildi. Prezidentimiz ushbu yangi muassasani ko‘zdan kechirdi.

Ta‘lim tizimiga bo‘layotgan e‘tiborning yorqin ifodasini bu yerda ham ko‘rish mumkin. Qariyb ming o‘rinli maktabda fan xonalari, kompyuter va xorijiy til xonalari, robototexnika to‘garagi, laboratoriya zarur o‘quv jihozlari bilan ta‘minlangan. Kutubxona, sport zali, futbol maydoni va oshxonada bolalar uchun keng qulayliklar yaratilgan.

Pedagoglar bilan muloqot chog‘ida bolalarning qobiliyatini to‘g‘ri shakllantirish, kasbiy ta‘limni rivojlantirib, bitiruvchilarni kasb-hunarli qilib hayotga yo‘llash muhimligi ta‘kidlandi. Xususan, axborot texnologiyalari, robototexnika, muhandislik kabi yo‘nalishlarni kengaytirish, o‘smirlarda harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirish vazifalari ko‘rsatib o‘tiladi.

Mahalladagi yangi uylarning birinchi qavatlarida ikkita xususiy bog‘cha tashkil etilgan. Ularning Navro‘z arafasida ochilgani ota-onalar uchun bayramona tubfa bo‘ladi.

► Davomi 2-beta

## XALQARO AHAMIYATGA MOLIK MASALALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev 20-mart kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda bir-birini va ikki mamlakatning birodar xalqlarini bahor ayyomi — Navro‘z bilan samimiy qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning eng dolzarb masalalari batafsil muhokama qilindi.

O‘tgan yil avgust oyida Ozarbayjon Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifida erishilgan kelishuvlarga muvofiq amaliy hamkorlik bo‘yicha rejalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Iqtisodiy hamkorlik yili doirasida birgalikda samarali ishlar olib borilayotgani alohida mamnuviyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda,

avtomobilsozlik, to‘qimachilik, elektrotexnika, energetika, qishloq xo‘jaligi, turizm va ko‘plab boshqa tarmoqlardagi loyihalar faol bosqichga kirgan.

Bundan tashqari, madaniy-gumanitar almashinuv doirasidagi tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Davlat rahbarlari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar, shuningdek, bo‘lajak oliy va yuqori darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar va ko‘p tomonlama sammitlar rejasini ko‘rib chiqdilar.

O‘ZA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

# UMUMMILLIY TOTUVLIK VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR BILAN ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHGA OID CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda umummilliy totuvlik, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga teng huquq va imkoniyatlar yaratish, ko‘p millatli xalqimizning jonajon O‘zbekistonimiz farovonligiga daxldorligini kuchaytirish, xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida qaror qilaman:

### I. Ustuvor vazifalar

1. Jamiyatda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

- millatlararo munosabatlarni **uyg‘unlashtirish**, jamiyatda **do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik, bag‘ri-kenglik va birdamlikni** mustahkamlash orqali yagona fuqaroviy o‘zlikni shakllantirish;
- O‘zbekistonda yashovchi **barcha millat va elatlarning** huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash orqali ularning **umummilliy taraqqiyotga daxldorligini** kuchaytirish;
- xorijdagi vatandoshlar** jamoalari va o‘zbek diasporalarining milliy o‘zligini saqlashga ko‘maklashish hamda ularning **ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatini** Vatanimiz rivojiga safarbar etishni qo‘llab-quvvatlash;

g) **xalq diplomatiyasi** mexanizmlari orqali xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-madaniy va **do‘stlik aloqalari** hamda O‘zbekistonning xalqaro maydondagi **ijobiy imijini mustahkamlash**.

### II. Sohani tubdan isloh qilish

2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi negizida **O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi** (keyingi o‘rinlarda — Qo‘mita) tashkil etilsin.

► Davomi 2-beta

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR MASALALARI BO‘YICHA QO‘MITASI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-52-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida **qaror qilaman**:

### 1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Qo‘mita) to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;
- Mamlakatimizda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni

mustahkamlash bo‘yicha **“Yo‘l xarita”** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi Millatlararo totuvlik, bag‘ri-kenglik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari **Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari** (keyingi o‘rinlarda — hududiy jamoatchilik kengashlari) deb qayta nomlansin.

3. **Vazirlar Mahkamasi Qo‘mita huzuridagi jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi**

va **hududiy jamoatchilik kengashlarining yangilangan (namunaviy) tarkibini** davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar a‘zolari, fan va madaniyat namoyandalari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillaridan iborat tarkibda tasdiqlansin.

### 4. Belgilansinki:

a) Qo‘mita huzuridagi jamoatchilik kengashi **maslahat-kengash organi** hisoblanib, Qo‘mitaga yuklangan vazifa va majburiyatlarning bajarilishiga ko‘maklashadi;

► Davomi 2-beta

## 22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni

# UY, KO‘CHA, MAHALLA OBODLIGI QALB OBODLIGIDIR

Tabiat hikmatiga to‘la. Undagi har bir o‘zgarish jamiyat rivojiga, odamlar hayotiga bevosita ta‘sir o‘tkazadi. Martning ilk kunlarida yoqqan qor-yomg‘irdan keyin harorat ko‘tarilib, tuproq tobga kelishi bilan qishloqlarda bahor yomushlari boshlanib ketdi.

Odamlardagi bu harakat mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan katta o‘zgarishlarga monandligi, mushtarakligi bilan har bir kishining dilida yaxshilikka, kelajakka orzu-umidlarni uyg‘otadi.

Bahor — yasharish va yangilanish fasli. Uyg‘oqlik, obodlik, bunyodkorlik fursatidir. Bahor kelishi bilan yoshi kattalarimiz qo‘llarini duoga ochib, musaffollik va iliqlikka, Navro‘z va sumalakka yetkazganiga shukrona keltiradi.

Sharqona yangi yil boshlanadigan qutlug‘ kun — Navro‘zi olam asrlar davomida bahor, ezigulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ramzi sifatida el-yurtimizning

ijtimoiy-ma‘naviy hayotida beqiyos o‘rin tutib kelmoqda. Bu munavvar ayyom keyingi yillarda vatanimizda amalga oshirilayotgan **“Inson qadri uchun, inson baxti uchun”**, degan olijanob g‘oyaga hamohang bo‘lib, tom ma‘noda umumxalq bayramiga aylandi.

Prezidentimizning “2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorlanish ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, bu yil mehr-saxovat bayrami **“Qadriyatlar boqiy bo‘lsin, Navro‘zi”** degan bosh g‘oya asosida umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada keng nishonlanadi.

► Davomi 3-beta



## ULUG' AYYOM KUNLARI YURTIMIZDAGI BUNYODKORLIK MAHALLALARDAGI TINCHLIK-AHILLIK, ODAMLARDAGI MAMNUN KAYFIYAT BILAN UYG'UNLIK KASB ETADI

### Boshlanishi 1-betda

Ichki imkoniyatlarni ishga solib, aholi bandligini ta'minlash tamoyili bu mahallada ham namoyon. 70 ta savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchasi, 2 ta ishlab chiqarish korxonasida ko'pchilik ro'zg'or tebratayapti. Prezidentimiz farmoyishi bilan e'lon qilingan dolzarb bir oylik doirasida tomorqadan unumli foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlari ekish qizg'in davom etmoqda.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida ko'chat ekib, yashillik yaratish ko'lamini kengaytdi. Poytaxtimizning Bektemir tumanida yana bir boqqa asos solindi.

Prezidentimiz davlat tashkilotlari va jamoatchilik vakillari bilan birga bu yerda ko'chat ekdi.

Iykota, Majnunot, Zilola, Rohat va Iqbol mahallalari orasidagi bu hudud avval qarovsiz joy edi. Elning birligi bilan yana bir yashil makon, aholi hordiq chiqaradigan park paydo bo'lmoqda. Uch gektarlik hududga o'rmon konsepsiyasi asosida uch ming tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Ularning sug'orilishi va parvarishiga mas'ullar birlashtirildi.

Mahalla faollari, nuroniyalar va yoshlar bilan samimiy muloqot bo'ldi. Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillariga ushbu xayriy tashabbusiga hissa qo'shayotgani uchun minnatdorlik bildirdi. Barchani kirib kelayotgan Navro'z bayrami bilan tabrikladi.

Prezident tashabbusi bilan e'lon qilingan dolzarb bir oylik doirasida mahallalarda dehqonchilik va obodonlashtirish ishlari safarbarlik bilan olib borilmoqda.

Bahorda 125 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan. Bunda ekin joylarini to'g'ri tanlash, sug'orishni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi bog'da ekilgan ko'chatlar ana shu ezgu amalning davomi bo'ldi.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili Davlat dasturiga muvofiq, bu yil ko'chatchilikka ixtisoslashgan 18 ta o'rmon xo'jaligi tashkil qilinadi. Ularda "ilm — loyiha — amaliyot" tamoyili asosida genetik seleksiya ishlari kuchaytirilib, plantatsiyalar kengaytirildi. "Yashil olam" platformasi ishga tushirilib, ko'chatlarni onlayn sotib olish yo'lga qo'yildi.

Yurtimizning barcha joylarida Navro'z ayyomi ko'tarinki ruhda kutib olinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev Bektemir tumani Rohat mahallasiga tashrif buyurib, bayram saylida ham qatnashdi.

Xizmat ko'rsatish va savdoga ixtisoslashgan mahallada 4 ming nafar aholi yashaydi. Bandlikni ta'minlash bo'yicha yangi tizimga muvofiq, banklar ishtirokida mahallaning ichki imkoniyatlari yuzaga chiqarilmoqda. O'tgan yili yuzga yaqin aholi ishga joylashtirilgan, 256 nafari o'zini o'zi band qilgan, 13 nafari tadbirkorlik faoliyatini boshlagan. Ikki ta ishlab chiqarish korxonasi, o'nlab savdo va maishiy xizmat shoxobchalari odamlarga qulaylik yaratmoqda.

Prezidentimiz ushbu korxonalarni ko'zdan kechirdi.

Mahallada ko'chalar obod, xonadonlar saranjom-sarishta. Ta'lim va tibbiyot muassasalari, sport maydonchalari, o'quv markazi, amfiteatr, hunarmandlar va axborot-kutubxona markazlari, nuroniyalar maskani faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari ushbu maskanda tashkil etilgan sumalak saylida qatnashdi, mahalla faollari, nuroniyalar bilan samimiy suhbatlashdi. Muloqotda joriy yilgi rejalar, jumladan, tinchlik-osoyishtalikni saqlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish haqida so'z yuritildi.

— Mahallangizdagi obodlikni, odamlarning kayfiyatini ko'rib, mamnun bo'ldim. Vaqti bilan barcha tumanlardagi imkoniyatlarni oshiramiz. Buning uchun eng asosiysi — tinchlik-ahillik kerak. Ilgari chegaralarimizda vaziyat qanday edi? Vazminlik bilan, siyosiy iroda bilan hamma masalalarga yechim topaymiz. Barcha ishlarni quyi tizimda tashkil qilganimiz 10 mingga yaqin mahallaning holatida yaqqol namoyon. "Mahalla yetiligi" orqali xonadonga yetib borilyapti. Odamlarning daromadini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar siyosatida hali ishlarimiz ko'p. Shuning uchun ta'limga, o'g'il-qizlarni o'qitishga katta e'tibor berishimiz kerak. Yoshlari bilimlari va ma'naviyatli jamiyat, albatta, farovonlikka erishadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Rohat mahallasida umumta'lim maktabi, bolalar musiqa va san'at maktabi, "Barkamol avlod" markazi, akademik litsey faoliyat yuritmoqda. Yaqinda yangi maktabgacha ta'lim tashkiloti qurib bitkazildi. Bular ham yoshlar ma'rifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**  
**Ikrom AVVALBOYEV,**  
**Behrux XUDOYBERDIYEV,**  
**O'ZA muxbirlari**

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

# UMUMMILLIY TOTUVLIK VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR BILAN ALOQALARNI MUSTAHKAMLASHNI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHGA OID CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

### Boshlanishi 1-betda

#### 3. Belgilansinki:

a) Qo'mita millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlari va tashkilotlarning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi;

b) Qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga bevosita hisobdordir;

v) Qo'mitaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rais rahbarlik qiladi;

g) Qo'mita raisining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan ikki nafar o'rinbosari bo'ladi;

d) joylarda millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash masalalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosarlari zimmasiga yuklanadi va ular ushbu masalalar bo'yicha Qo'mita oldida hisobdordir;

e) Qo'mita O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

#### III. Umummilliy totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan choratadbirlar

4. Qo'mita va milliy madaniy markazlarning umummilliy birdamlikni ta'minlash choralari kuchaytirishga qaratilgan quyidagi takliflari ma'qullansin:

a) har yili "O'zbekiston yagona Vatan!" shiori ostida yurtimizdagi barcha millat va elatlar vakillarining o'zaro tengligi, birdamligini, ularning Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini e'tirof etuvchi anjuman tashkil etish;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida bittadan ko'chalarni barcha millat va elatlarning madaniyat, urf-odatlari va an'alarini, o'zaro uyg'unlashgan millatlararo munosabatlarni ifodalagan "O'zbekiston madaniy boyligi" nomli ko'chalar sifatida tashkil etish;

v) "Birgalikda kuchimiz" shiori ostida turli millat va elatlar vakillaridan

iborat eko-volontyorlar ishtirokida ekologik aksiyalarni o'tkazib borish orqali dolzarb masalalarni hal etishda daxldorlikni anglash tuyg'ularini kuchaytirish;

g) turli etno-madaniy guruhlariga mansub taniqli shaxslar ishtirokida umummilliy hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

d) turli millat va elatlar vakillarining O'zbekiston tarixi va bugungi kundagi barqaror rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini haqida hikoya qiluvchi filmlar va turkum ko'rsatuvlar yaratish.

#### IV. Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning yangi mexanizmlari

5. Vazirlar Mahkamasiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining "Xorijdagi vatandoshlar orqali bilimlarni transfer qilish" (TOKTEN) dasturi namunasida xorijdagi vatandoshlarning Yangi O'zbekiston iqtisodiy qudratiga qo'shayotgan hissasini yanada oshirish masalalarida innovatsion iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan inson kapitali transferini amalga oshirsin, bunda yuqori malakali mutaxassislarni barcha sohalarda sun'iy intellektni tatbiq etish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash tashkilotlariga, qishloq xo'jaligi va xususiy sektor korxonalariga yo'naltirishga qaratilgan aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilasin.

6. Qo'mita Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda uch oy muddatda mamlakat iqtisodiy-hayotida xorijdagi vatandoshlar ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan aniq asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Bunda:

a) xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritishini qo'llab-quvvatlash;

b) xorijdagi vatandoshlarning xayriya pul mablag'larini ijtimoiy foydali va maqsadli loyihalarni moliyalashtirishga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirish;

v) xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillarining kapital bozoriga investitsiyalar kiritishini rag'batlantirish;

g) xorijdagi vatandoshlar, diaspora vakillari turizmini rivojlantirish masalalarida nazarda tutiladi.

7. Qo'mita va "Vatandoshlar" jamoat fondi vasiylik kengashining tadbirkorlik platformalarini yaratish,

jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ekologik barqarorlik, sifatli ta'lim kabi masalalarda o'zaro fikr-mulohaza almashish maqsadida ekspertlik va ilmiy doiralarni vakillari hisoblangan xorijdagi vatandoshlarning doimiy muloqoti ko'rinishida "Uz Global Think" forumini o'tkazish bo'yicha takliflari ma'qullansin.

#### 8. Qo'mita "Vatandoshlar" jamoat fondi bilan birgalikda:

a) har yili xorijdagi vatandoshlarning "Uz Global Think" forumini tashkil etsin va unda ilgari surilgan fikrlar asosida mamlakatimizning barqaror rivojlanish maqsad va vazifalariga xizmat qiluvchi takliflarni shakllantirib, Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin;

b) 2025-yil 1-sentabrga qadar biror hududlar, do'stlik jamiyatlarini xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishda "madaniy ko'priklarni aylantirish, xalq diplomatiyasi vositasida O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash choralari nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

#### 9. Quyidagilar:

a) Madaniyat vazirligida millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan ishlash bo'yicha vazifalarning qisqarishi hisobiga 3 ta boshqaruv shtat birligi Qo'mita tuzilmasiga o'tkazilsin;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosarlari kotibiyatlariga millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash vazifalari yuklatilsin;

v) Madaniyat vazirligi tuzilmasidagi "O'zbekiston" jurnali tahririyati davlat muassasasi Qo'mita tuzilmasiga o'tkazilsin;

#### 10. Belgilansinki, Qo'mita o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

a) Qo'mita vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlaridan statistik, tahliiy materiallar, xulosalar va boshqa ma'lumotlarni so'rash va bepul olish;

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti**

Toshkent shahri,  
2025-yil 19-mart

b) davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijdagi vatandoshlar orasidan yuqori malakali mutaxassislarni hamda ekspertlarni, shu jumladan, shartnoma asosida jalb qilish;

v) umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashga doir tashabbuslar bilan chiqish va takliflar kiritish.

12. Qo'mita raisiga quyidagi huquqlar berilsin:

a) Qo'mita tarkibiy tuzilmalari o'rtasida aniq vazifa va funksiyalarni taqsimlash;

b) Qo'mita tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy shtatlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish;

v) Qo'mita tarkibiy tuzilmasini tasdiqlash, xodimlarni lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish, shuningdek, ularni rag'batlantirish.

#### VI. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

13. Vazirlar Mahkamasiga bir hafta muddatda "O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanin.

16. Qo'mita Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

17. Farmon ijrosini nazorat qilish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi R.Q.Davletov zimmasiga yuklanin.

**SH. MIRZIYOYEV**

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJDAGI VATANDOSHLAR MASALALARI BO'YICHA QO'MITASI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

### Boshlanishi 1-betda

b) hududiy jamoatchilik kengashlarning tashkiliy-texnik ta'minoti Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

5. Qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

a) O'zbekiston xalqining birdamligini ta'minlash, xorijdagi vatandoshlarni tarixiy Vatani bilan birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini kompleks tahlil qilishda ishtirok etish, ularning amalga oshirilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

b) mamlakatimizda umummilliy totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekistonning xalqaro imijini oshirishda xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar tayyorlash va Qo'mitaga kiritish;

v) aholida O'zbekiston xalqining umummilliy qadriyatlarini ustuvorligini anglash tuyg'usini kuchaytirishda davlat

va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

g) jamiyatda umummilliy birdamlik, xorijiy davlatlar hududlari bilan do'stlik va birodarlik aloqalarini rivojlantirishga oid targ'ibot ishlarini tizimli olib borish.

#### 6. Belgilab qo'yilsinki:

a) Qo'mita xodimlariga yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlariga ko'ra tarif koeffitsiyentlari va bazaviy lavozim maoshlari 3 baravar (Qo'mita rahbariyatiga 4 baravar) miqdorda qo'llanadi;

b) Qo'mita xodimlari oylik maoshining 50 foizi miqdorida Qo'mita xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi shakllantiriladi;

v) Qo'mita boshqaruv xodimlari uchun avvalgi ish joyida harbiy va maxsus unvonlar (martaba darajalari, malaka toifalari, diplomatik darajalar va boshqalar) uchun berilgan ustama va qo'shimcha to'lovlar saqlab qolinadi;

g) Qo'mitada ishlangan davr harbiy va maxsus unvonlarni (martaba darajalari, malaka toifalari, diplomatik darajalar va

boshqalarni) olish uchun zarur bo'lgan ish stajiga qo'shiladi;

d) Qo'mita boshqaruv xodimlarining lavozim maoshiga rag'batlantirish koeffitsiyenti hisobga olingan holda davlat organlaridagi ko'p yillik mehnati uchun 2 yildan 5 yilgacha — 0,1; 5 yildan 10 yilgacha — 0,2; 10 yildan 15 yilgacha — 0,3; 15 yildan 20 yilgacha — 0,4; 20 yildan ortiq — 0,5 koeffitsiyentlarda har oylik ustamalar to'lanadi.

7. Qo'mita boshqaruv xodimlari tarkibi yuklatilgan vazifalarga mos, ularni professional darajada amalga oshirishga qodir bo'lgan malakali, zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega (ustuvorlik asosida sotsiolog, siyosatshunos, xalqaro munosabatlar sohasidagi mutaxassislar, tarixchi, yurist, filolog) bo'lgan mas'uliyatli kadrlar bilan to'ldirilishini ta'minlasin.

#### 8. Qo'mita:

a) o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi;

b) sohada faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat tashkilotlarga doimiy ravishda axborot, maslahat, tashkiliy va uslubiy jihatdan ko'maklashib boradi.

9. Tashqi ishlar vazirligi xorijiy mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan turdosh tashkilotlar, o'zbek madaniy markazlari va jamiyatlari haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritishda, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda va rivojlantirishda Qo'mitaga amaliy yordam ko'rsatsin.

10. Qo'mita xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, Qo'mitaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan bog'liq xarajatlar 2025-yilda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondidan "Vatandoshlar" jamoat fondiga ajratilgan davlat subsidiyasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi hamda 2026-yildan boshlab

O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutilsin.

#### 11. Qo'mita:

a) "Vatandoshlar" jamoat fondi, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlariga doimiy ravishda axborot, maslahat, tashkiliy va uslubiy jihatdan ko'maklashib borsin;

b) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2026-yil 1-yanvargacha Qo'mita umummilliy birdamlikni ta'minlash sohasida davlat siyosati konsepsiyasi va Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalar sohasida davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

12. Qo'mita Toshkent shahri Bobur ko'chasi 45-uyda joylashtirilsin.

Belgilansinki, Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi va o'z binolariga ega bo'lmagan

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti**

Toshkent shahri,  
2025-yil 19-mart

**SH. MIRZIYOYEV**

22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni

Boshlanishi 1-beta

Bu yilgi tabarruk mohi Ramazonning shukuhi va fayzi Navro'z bayrami tantanalariga ulanib, o'ziga xos ajib uyg'unlik kasb etyotir. Diniy manbalarda keltirilishicha, Ramazon oyi oylarning sultoni, sayyidi, eng afzali sanalgan. Mazkur oyda ezgu amallarga e'tibor yanada kuchayadi. Ginalar unutiladi. Yomonlikning yo'li to'siladi.

Yurtimizda Navro'z tantanalariga hamohang tarzda yana bir bayram — Mahalla tizimi xodimlari kuni keng nishonlanadi. Bu ayyomning mana shunday shukhli kunlarda o'tkazilayotganida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor. Zotan, mahalla asrlar osha milliy urf-odat va an'alarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tabiiy beshigi, yaxshi qo'shnichilik va hamjihatlik maskani bo'lib kelmoqda.

Tozalik bor joyda  
fayz-baraka bo'ladi

Obodlik ko'ngildan boshlanadi. Bu xislat asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan. Chunki poklik, ozodalik, tozalik bor joyda fayz-baraka, ishdan unum, aholi kayfiyatida ko'tarinkilik bo'ladi.

Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida gigiyena qoidalari amal qilish barobarida atrof-muhitni toza tutish, obodonchilik ishlari, ariq va anhorlar qazish, bog'-rog'lar barpo etish salomatlikni saqlashda muhim vosita ekanini qayd etgan. Dehqonchilik, yerga ishlov berish, tomorqadan foydalanish "Avesto"da ham yuksak darajada o'z ifodasini topgan. Unda tabiat, yer, suv, daraxt, o'simliklarni e'zozlash, yerga ishlov berib, sug'orib, bog'-rog', ekinzorlar bunyod etish va boshqalar muqaddas sanalgan.

Obod mahallalar sarishta ko'cha va xonadondan boshlanadi. So'nggi yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari, "Obod ko'cha", "Obod xonadon", "Obod mahalla" mezonlari, "Yashil makon" umummilliy loyihasi hayotimizga keng tatbiq etildi. Natijada aholi maskanlari, mahallalar ko'rinishi butkul o'zgarib, odamlarimiz turmush tarzi, oilalarda to'kin-sochilik yanada ortib bormoqda.

Birgina "Obod ko'cha", "Obod xonadon", "Obod mahalla" mezonlarini obod, bugun ayni tamoyil asosida har bir xonadonga, har bir ko'cha va mahallaga bunyodkorlik ruhi kirib borki. Har bir kishi mas'uliyatni chuqur his etib, tozalik, ozodalikni o'z uyidan boshlasa, mahallasi, ko'chasining saranjom-sarishta, fayzli bo'lishiga hissa qo'shsa, bu go'shalar chinakam obod maskanlarga aylinishini o'z hayoti misolida ko'ryapti.

Fikrimizni aniq misollar orqali davom ettirsak. Bu jarayonda O'zbekiston mahallalari uyushmasi qator ezgu tashabbuslarni hayotga tatbiq etdi. Jumladan, joriy yilning 10-fevralidan 10-martigacha qadar barcha mahallalarda "Dolzab bir oylik" tadbirlari e'lon qilindi.

Asosiy maqsad obodlik, poklik, tozalik kabi xalqona qadriyatlarini qayta jonlantirish, ommalashtirish, odamlarning mas'uliyatini oshirish, har bir xonadonda tozalik ruhini yaratish, shu orqali yurtimiz obodligini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

"Dolzab bir oylik" tadbirlari doirasida 112 ming 801 ta ko'cha, 2 million 368 mingdan ortiq xonadonda obodonlashtirish ishlari bajarildi. 741 ming 917 ta xonadon tomorqasi chopildi. 888 kilometr ichki yo'l asfaltlandi, 2201 kilometr yo'l shag'allashtirildi, 68 ming 498 ta tunji yoritish chirog'i o'rnatildi. 1,9 millionga yaqin gul, 843 mingdan ortiq uzum, 9 million 499 mingga yaqin mevali va manzarali daraxt ko'chati ekildi. "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" taloviga start berildi.

Shaxsan o'zim Buxoro va Navoiy viloyatlarida har bir xonadon, ko'cha va mahallani obod qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rgandim. Bilasizmi, odamlarimizga o'ziga yo'l-yo'riq ko'rsatsangiz, imkoniyat yaratangiz, ular yaddoq cho'lni ham bog'u bo'stonlarga aylantirishga qodir.

Buni birgina Peshku tumanidagi Ibn Sino mahallasi misolida ko'rib, amin bo'ldim. Bu yerda dehqonchilik, issiqxonachilik bo'yicha o'ziga xos tajriba maktabi yaratilgan. 1542 ta tomorqa yer egasi ixtiyorida 185 gektar ekin maydonidan samarali foydalangan holda yiliga ikki-uch marta hosil oladi.

Jumladan, Mustaqim Toshov 10 sotix maydondagi issiqxonada yiliga 1,2 million tup ko'chat, shundan 600 ming tup pomidor, 400 ming tup bodring, 100 ming tup bulg'or qalampir va 100 ming tup qovun-tarvuz ko'chati parvarishlaydi. Jami yillik daromad 2 milliard so'm, shundan 1,6 milliard so'mi so'f foyda. Ushbu issiqxonada 20 kishining bandligi ta'minlangan.



UY, KO'CHA, MAHALLA OBODLIGI  
QALB OBODLIGIDIR



Qahramon QURONBOYEV,  
O'zbekiston mahallalari  
uyushmasi raisi,  
siyosiy fanlar doktori,  
professor

Mahallalarni obod qilish bo'yicha yo'lga qo'yilgan "Dolzab bir oylik" tadbirlari kutganimizdan-da samarali natijalarga boy bo'ldi. Bu jarayonda "mahalla yetiligi", uybochi va ko'chaboshilar, nuroniyar tashabbusni qo'lga olib, yurtimizning har bir mahallasida hasharlar tashkil etdi. Jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yib, xonadonlar, ko'chalar obodligini ta'minladi.

Tajriba tariqasida amalga oshirilgan tashabbus keng quloch yoyib, ko'plab mahallalar farovonlikka yuz tutgani ayni haqiqat. Ayni jarayonda Prezidentimizning "Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilinishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarib, barcha mahalla ahlini ruhlantirdi, obodlik harakatini tartibli va tizimli yo'lga qo'yish imkoniyatini yaratdi.

Farmoyishga asosan, 2025-yil 11-martdan boshlab "Dolzab bir oylik" safarbarligi e'lon qilindi. Uning doirasida mahallalarda 29 mingta kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va hunarmandlik loyihasi amalga oshirildi. Aholi xonadonlariga 1,23 million bosh parranda, 24 ming asalari oilasi, 21 ming bosh qo'y-echki va qoramol yetkazib beriladi. 400 ming gektar aholi tomorqalarida hamda 180 ming gektar yer maydonlarida sabzavot, poliz, kartoshka, dukkakli va boshqa sardoromad ekinlar ekiladi.

Mahallalarda obodonlashtirish ishlari, ommaviy hasharlar tashkil etiladi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida, shuningdek, kambag'al oilalar xonadonlariga ko'chatlar o'tqaziladi. Minitraktor va motokultivatordan foydalangan holda aholi tomorqalari ekin ekishga tayyorlanadi. Kambag'al oilalar a'zolari hamda ishsiz fuqarolarga moliyaviy ko'mak paketlari (ixcham issiqxonona, parranda, baliq, chorva mollari, asalari qutilari, limon, xurmo va boshqa ekinlar pypy) va ko'chatlari) taqdim etiladi.

An'analar davom etadi

Obodlikka bir yoki ikki kishining sa'y-harakati bilan erishib bo'lmaydi. Buning uchun odamlarda jamoaviy mas'uliyat, daxldorlik tuyg'ularini kuchaytirish lozim. Bu borada xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlar muhim o'rinni tutadi.

Xalqimizda "Qush uyusida ko'rganini qiladi", degan naql bor. Farzandlarimiz qalbida obodlikka mehr uyg'otish, atrof-muhitga ehtiyothona munosabatda bo'lish tuyg'ularini tarbiyalashda aynan oilaning o'rni va ta'birii hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Keling, buni ayrim misollarda ko'rib chiqamiz.

Azaldan qizlarimiz, kelinlarimizning erta sahar turib, hovliga suv sepishi, ko'cha eshik

oldini supurishi an'anaga aylangan. Hatto yangi kelinlar orasida kim ertaroq turib, eshik oldini supurishi bo'yicha o'ziga xos musobaqalar mavjud ekaniga guvohimiz. Masalaning yana bir nozik jihati — agar qo'shningning yosh kelini bo'lmasa yoki tobi qochib qolsa, uning ko'chasini ham tozalash an'anasi ayollarimizning o'ziga xos bag'rikengligidan dalolat emasmi?

Qadimdan biror xonadonga qiz so'rab borgan sovcilar, avvalo, hovlining ozodaligiga e'tibor qaratgan. Sekingina gilam taglari, oshxonona va hojatxonaga nazar tashlab, oila tutumi, qizning qanchalar chaqon va epcil ekanini bilib olishgan. Hovliga ekilgan hamda xonaki gullar parvarishi ham shu xonadon bekasining nechog'liq tabiatiga oshno ekan. qalban yaratuvchanlikka intilishi va go'zallikni sevishidan guvohlik berib kelgan. Ayniqsa, shom vaqti uydan taralgan rayhon hidlari qalbgacha qadar xushbo'ylik olib kirgan.

Qizlarimizga uyni saranjom-sarishta, toza tutishi kerakligi doimo uqitirib kelindi. Agar darvoza tepasida yoki uylar peshtoqida, deraza oynasida chang bo'lsa yoki tortanak uya qurgan bo'lsa, ushbu hol oilaning qizlari obro'siga putur yetkazgan. Buviylarimiz yosh qizlarga toza uyi farshtalar kelishini, agar unga rioya qilmasa, uydan baraka ketishini bot-bot uqitadilar. Kuzatgan bo'lsangiz, hatto qaldirg'och ham baraka yoqqan uyga in qurib, shu yerda polaponini katta qiladi.

Yoxud bolosi va otasi bilan birga daraxt ekan, uyni parvarish qilishda ishtirok etgan, tomorqasi, hovlisi tozaligini ta'minlagan bolaning ongu tafakkuri o'zgacha bo'ladi. Ona



Fazilatlar aks etgan maskan

Xalqimiz bahor kelishi bilan yaxshi niyat qilib yerga urug' qadaydi, dehqonchilik ishlari boshlanadi. Ko'chat ekilib, yashillikka intilish kuchayadi. Zotan, bu ham o'zbek oilasining qadriyat!

O'ildan farzand tug'ilganda, albatta, unga atab daraxt ekilgan, mevasi ramziy ma'noda avlodni anglatgan. Ekilgan daraxtning ko'kka bo'y cho'zishi farzand kamolotidan darak bergan. Nikohdan o'tayotgan yoshlar mana shunday baxtli onlardan esdalik sifatida yaxshi niyat bilan yerga nihol qadagan.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yurga mehr va sadoqat ruhida kamol topadi. O'zi ekan nihol unib-o'sayotganini ko'rgan bolaning qalbidagi orzu-maqсадlari ham yuksak bo'ladi.

Ko'rib turganingizdek, xalqimizda obodlik, uyni, ko'chasini toza tutish, ko'chat ekib, bog' yaratish azaldan eng ezgu amallardan sanalgan. Xalqimiz ko'klam kelganini shunchaki bayram, o'yin-kulgi qilib kutib olmag'an. Hamjihat bo'lib ko'cha-yu xiyobonlarni, yo'llarni, ariqlarni tozalagan. Bunday xayri an'analar shu zavilda avloddan avlodga o'tib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Bugun ana shu an'analar, qadriyatlarini qayta jonlantirish, yanada ommalashtirish fursati yetdi! Farzandlarimiz qalbida obodlik, poklik, mehnat tarbiyasini bolalikdan shakllantirishga e'tibor qaratish vaqti keldi. Bu jarayonda har birimiz o'z xonadonimizni obod qilish borasida qilyotgan amaliy ishlarimiz, ibratli tashabbuslarimiz, chinakam jonkuyarligimiz bilan namuna bo'lishimiz lozim. Odamlarda tozalikka, obodlikka e'tiborni kuchaytiraylik! Zotan, yurish-turishi, yashishi pokiza xalqning fikri ham, niyati ham pokiza bo'ladi!

Shu o'rinda bir ta'kid: albatta, zimmamizdagi ishlarni amalga oshirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun har birimiz, eng avvalo, "mahalla yetiligi" vakillari, uybochi va ko'chaboshilar, jamoatchilik tuzilmalari a'zolari faol bo'lishi, odamlarni uyg'otishi, harakatga keltirishi zarur. Tashabbusni qo'lga olsak, odamlarning dunyoqarashi, fikrini o'zgartirsak, ijtimoiy faolligini kuchaytirsak, mahalla hal qila olmaydigan masalaning o'zi bo'lmaydi!

"Uyning obod bo'lsa, ko'chang obod bo'ladi, mahallang obod bo'lsa, qalbing obod bo'ladi", degan hayotiy shior har bir mahalla xodimi faoliyatining dasturulamaliga aylinishi zarur!

Umuman, xalqimizga xos birdamlik, hamjihatlik, ahillik, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash, mahalla-ko'ya, tevarak-atrofni toza va ozoda saqlash fazilatlarini hasharlarda o'z ifodasini topgan.

Saxovat,  
birdamlik va  
bag'rikenglik uyg'unligi

Bugun har bir yurtdoshimiz qalbida otabobolardimizdan meros jo'mardlik, tantilik va bag'rikenglik xislatlari jo'shib turibdi. Ayniqsa, bu Navro'zda bor bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy himoya masalasi tarixan vatandoshlarimizga yaqin tushuncha. Avvallari qo'ni-qo'shnilar orasida devor ham bo'lmagan. Odamlar biror tansiqroq yegulik tayyorlaydigan bo'lsa, albatta, uyni qo'shnisiga iling. Kimdir betob bo'lib qolsa yoki shifoxonada davolanib chiqsa, yaxshi taomlar tayyorlab, yo'qlashni baxta qilmagan. Shu bahona bir-biridan ko'ngil so'rab, ruhan dalda bergan.

Bu vaqtda, ayniqsa, qo'shnilar bilan aloqalar juda yaxshilandi. Biror nima kerak bo'lsa, o'g'il-qizini yordamga jo'natib, ko'makka hozirlanadi. O'ta-otam doimo farzandlariga qo'shnilar bilan do'stona aloqada bo'lishni va ularga yordam berishini o'rgatishadi. Mahallada mana shunday qadriyatlar sabab hamma bir-birini tanir, doimo yordamga hozirdir.

Shukrki, bu jihatlar bugun ham mahallalarda bardavom. Qariyalami qadrlash, hurmat va ehtirom ko'rsatish, non va nozu ne'matlar bilan holdan xabarlashgani borib, duolarni olishni hali-hamon yoshlarimiz farzandlik burchi deb biladi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida qiyналgan, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, ulardagi ishsizlar bandligini ta'minlash doimiy e'tibordir.

Birgina 2024-yilda O'zbekiston mahallalari uyushmasi, mahallalar ko'magida 754 mingdan ziyod ishsiz fuqaroning bandligi ta'minlandi, 194 mingga yaqin fuqaro tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi, 472 mingdan ortiq fuqaroga kredit va 48,2 ming nafariga subsidiya ajratildi. 165 ming 729 kishi (jumladan, 69,6 ming xotin-qiz va 96,1 ming yosh) kasb-hunarga, tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi.

Ajralish yoqasiga kelib qolgan 30 ming 513 ta oila yarashtirildi. Kam ta'minlangan 197 ming 201 ta oilaning uy-joylari hashar yo'li bilan ta'mirlandi. Sayxonobod, Zarbdor, G'ijduvon, Uychi tajribalari asosida 4,7 millionta xonadonda tomorqadan qo'shimcha daromad olish tizimi yo'lga qo'yildi. "Temir daftar"ga kiritilgan 24 ming 964 ta oila, "Ayollar daftar"da 106 mingdan ziyod xotin-qiz va "Yoshlar daftar"da 97 mingga yaqin yoshga moddiy yordamlar ko'rsatildi.

Ijtimoiy himoya, saxovat, xayru ehson kabi ezgu amallar muborak Ramazon oyida yanada yorqinroq namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining "Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga asosan, ushbu fazilatli ayyom yurtimizda "Ramazon — saxovat, birdamlik va bag'rikenglik oyi" g'oyasi asosida o'tkazilyapti.

Bu tabarruk kunlarda ehtiyojmandlar, ilm-ma'rifat yo'lida izlanayotgan yoshlarga yordam berilmoqda. Oilaviy rishtalarni mustahkamlash, mahallalarda o'zaro tushunish va ishonch muhitini kuchaytirish, hurmat va mehr-oqibat qadriyatlarini tarannum etishga e'tibor qaratilyapti. Nuroniyalar, bemorlar, ko'ngli yarimlik holdan xabar olish, ularga dalda bo'lishga oid ishlar hajmi tobora kengaymoqda.

Jamiyatning yorug' yuzi,  
vijdonimiz ko'zgusi

Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatib, bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchli ko'priki vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. Ayni paytda har bir inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, o'z hayotini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi.

Bu yilgi bayram doirasida "Mahalla — jamiyatimizning yorug' yuzi va vijdoni ko'zgusi" g'oyasi ostida 22-28-mart kunlari barcha hududlarda "Mahallalarda milliy qadriyatlarini mustahkamlash haftaligi"ni o'tkazish ko'zda tutilgan.

Haftalik doirasida har bir mahallada "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla", "Eng namunali mahalla yetiligi" ko'rik-tanlovlari, "Eng yaxshi mahalla kutubxonasi", "Qizlar odobi targ'ibotchisi" tanlovlari tashkil etiladi. Aholi o'rtasida milliy o'yinlar va askiya sayillari o'tkaziladi.

Yoshlar o'rtasida "Men o'qigan kitob" ko'rik-tanlovi, "Mahallam — mening nigohimda" rasmlar va fotosuratlar tanlovi, "Mahallamni kuylayman" shiori ostida qo'shiqlar tanlovi o'tkazish orqali yigit-qizlar iqtidori yuzaga chiqariladi. Ko'chma teatrlar va kinofilmlar namoyishi o'tkaziladi, shuningdek, bo'sh ish o'rinlari va kitob yarmakalari tashkil etiladi.

"Oila muqaddas" shiori ostida oilalarni yarashtirish va ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash choralari ko'riladi. Yoshlar o'rtasida "Quvnoq spartakiada", futbol bo'yicha "Mahalla kubogi" musobaqasi, keksalar o'rtasida shaxmat bo'yicha "Aql charxi" turniri o'tkaziladi. Nuroniy keksalarni e'zozlash, ko'makka muhtoj insonlarga yordam berish, xonadonlarida va tomorqasida hashar o'tkazish bilan bog'liq xayriya tadbirlari uyushtiriladi.

Namunali mahallalar tajribalari, shuningdek, "turizm qishlog'i", "turizm mahallasi" maqomini olgan qishloq va mahallalar faoliyatini ommalashtirish bo'yicha seminarlar tashkil etiladi. Xalq deputatlari, barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining o'z mahallalarida aholi bilan muloqotlari bo'lib o'tadi.

\*\*\*

Obodlik ko'ngildan, ko'ngilni olishdan, qilgan ishlarimiz natijasi va xalq roziligidan boshlanadi. Obodlik bor joyda qut-baraka, doimiy rivojlanish va kelajakka ishonch bo'ladi. Ayniqsa, mahallangiz orasta bo'lsa, qalbingiz quvonchga to'lib, mehnatga, vazifangizga ham shunday kayfiyat bilan kirishasiz.

Fursatdan foydalanib, Prezidentimizning "Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida "mahalla yetiligi", mahalla faollari, uybochi va ko'chaboshilar, yig'inaridagi jamoatchilik tuzilmalari a'zolari quyidagi ustuvor vazifalarga alohida e'tibor qaratishini zarur deb hisoblaymiz:

— Mahallalarda, shahar hamda qishloqlarda tozalik, ommaviy hashar va obodlik tadbirlarini uyushtirish bilan o'tkazish;

— yurt obodligi, yig'inlar farovonligi yo'lida hamjihat bo'lish, birlashish, har bir xonadon, ko'cha va mahallalar obodligi uchun mas'uliyatni zimmamizga olib, odamlarni bir maqsad sari harakatga keltirish;

— ijtimoiy mas'uliyat, mehnat tarbiyasi, daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, farzandlarimizda bolalikdan halollik, poklik fazilatlarini shakllantirish;

Bu o'rinda, eng avvalo, ularga o'zimiz namuna bo'lib, uyimiz, tomorqamiz ozodaligini ta'minlashimiz, birgalikda daraxt ekib, ekologik madaniyatga hissa qo'shishimiz zarur. Zotan, uyda olingan tarbiya, ota-onaning ibratli farzand kelajagida muhim o'rinni tutadi.

Erta sahdan ko'cha eshik oldini supurib, hovli va ko'chalarni ozoda saqlash aslida azaliy odat va qadriyatga aylangan. Bu qadriyatlar bilan uyg'un tarzda farzand tug'ilganda unga atab nihol eksak, nikohdan oldin yoshlarimiz yaxshi niyat bilan yerga ko'chat qadasa, mahallalarimiz qisqca fursatda yashillikka burkanadi.

Daraxt ekish va uni parvarishlashni majburiyat emas, qadriyat sifatida qabul qilsak, bizdan farzandlarimizga obod, yashillikka burkangan go'zal vatan meros qoladi.

## “Dolzarb bir oylik” safarbarligi



# KO'KLAMNING HAR FURSATI G'ANIMAT

**Turkiston tog' tizmalarida etagida joylashgan Baxmal tumanida boshqa hududlarda qaraganda qish barvaqt boshlanib, bahor kechroq keladi. Odatda Jizzaxda o'rik dovchalanayotgan paytda Oyqor etagidagi qishloqlarda endigina gullaydi. Bu yil qish yaxshi kelib qor me'yorida bo'ldi, bahor ham o'z vaqtida keldi.**

Qishloq odamlarining kayfiyati tabiatga bog'liq. Hamal yumshoq kelayotganidan ham baxmallikning kayfiyati baland. Shu bois, Prezidentimizning “Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida”gi farmoni hamda “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturida belgilangan vazifalar katta ko'tarinkilik bilan bajarilmoqda.

Jizzax viloyatida yetishtirilgan meva va uzumning eng ko'pi Baxmal tumani hissasiga to'g'ri keldi. Biroq tumanda suv taqchilligi asosiy muammo. Garchi Sangzor daryosi va Tuyator kanali tuman hududidan o'tsa-da, bu suv manbalardan balandda joylashgan ko'plab qishloqlarda tomorqani barqaror ta'minlaydigan suv yo'q.

Bugun tuman qishloqlarida kambag'allikni qisqartirishda tomorqalardan foydalanish samaradorligini oshirishdagi ishlarda asosiy e'tibor aholining tomorqa xo'jaligini suv bilan ta'minlashga qaratilmoqda. Bu ishlar Prezidentimiz belgilab bergan yangi tizim — aholining tomorqa va ijara yerdan samarali foydalanishida asosiy omil bo'lmoqda.

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi asosida 2024-2025-yillarda viloyatda aniq takliflar va individual yondashuvlar ishlab chiqilib, shu asosda hududlar bo'yicha og'ir ahvolda tushib qolgan 58 ta mahalla tanlab olingan edi. Bunday mahallalarda, birinchi navbatda, sug'orish tizimlarini yaxshilash chorasi ko'rilib, xonadonlar oqar suv bilan ta'minlanmoqda. Ushbu loyiha to'la amalga oshirilgach, 57 ming 500 xonadon tomorqasiga obihayot kiradi. Baxmal tumanidagi Sangzor ana shu mahallalardan biri.

Sangzor mahallasi yonidan shu nomdagi daryo oqib o'tishi hisobga olinsa, bu yerda suv tanqis bo'lishiga ishonish qiyin. Ammo bu daryo faqat sangzorliklarga tegishli emas. Unda daryoning quyi qismida joylashgan

Jizzax shahri, G'allaorol, Sharof Rashidov tumanlaridagi yana yuzdan ziyod qishloq va mahallaning haqi bor. Shu bois, har bir qishloqqa beriladigan suv qat'iy o'lchovli. Buning ustiga qishloq yosh oilalar hisobiga tez kengayib, endi qishloq chetidagi oqar suv bormaydigan qir yonbag'rida ham yangi hovlilar paydo bo'lmoqda.

Ayni paytda 5500 dan ziyod odam yashaydigan bu mahallada “Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla” mezonlari asosida keng ko'lami ishlar bajarilmoqda. Birinchi navbatda, suv bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun yettita artezian qudug'i qazilmoqda. Uning birinchisi foydalanishga topshirildi.

Aholi asosan, bog'dorchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. Har bir xonadonda o'rtaicha 25 sotixli tomorqa mavjud. Odamlar bahorgi yumushlarga astoydil kirishgan.

— Tomorqa qishlog'imiz aholisining asosiy daromad manbai — deydi mehnat faxriysi Umar Nurboyev. — Ayniqsa, bog'dorchilik

rivojlangan. Tomorqamizning asosiy qismi olmozor. Olma ekilmagan hovli yo'q hisobi. Odamlar bu mevani yetishtirishning sir-asrorini yaxshi biladi. Shuning uchun har yili mo'may daromad topmoqda. Davlatimiz tomonidan tomorqachilikni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor tufayli bog'dorchilikdagi ishlar takomillashib, sug'orishning zamonaviy texnologiyalari qo'llanyapti.

Bog'dorchilik ota meros bo'lgan sangzorlik barcha bog'bonu sohibkor yaxshi niyatda ko'chat ekib, bog' barpo etish bilan band. Davr bu tomorqada ham yerdan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish, sifatini yaxshilash, sotish, saqlash, mahsulot tannarxini arzonlashtirishda qator yangi muammolarni hal etish vazifasini qo'ymoqda.

Davlatimiz e'tibori tufayli bog'dorchilikni rivojlantirishga yondashuvlar o'zgardi. Bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari, mahsulotni saqlash, sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, xorij texnologiyasi asosidagi intensiv bog'lar ko'paymoqda.

Mahalladagi Durboveylar xonadonida mevali daraxtlarga ishlov berish barobarida joriy mavsumda 100 tup mevali daraxt ko'chati ekilgan.

— “Mahalla yetilligi” ko'magi bilan bog'imizni kengaytirdik, — deydi yul bekasi Nazokat Nurboyeva. — Ko'chatlar

hosilga kirguncha orasiga kartoshka, piyoz, sabzi, turli ko'katlar ekkdik. Nasib etsa, tomorqamizdan yaxshigina daromad olishni niyat qilganimiz.

Bugun mahallada tomorqadan unumli foydalanayotgan oilalar ko'p. Mahallaning chekka qismida yashaydigan odamlarning tomorqasiga suv kelishi Navro'z bayrami tantanalariga ulanib ketdi. Suv muammosi hal etilishi bilan bir gektarga yaqin maydonda bog' barpo qilindi.

Suv tanqisligi tufayli tomorqadan foydalana olmayotgan aholi manzillaridan yana biri Paxtakor tumanidagi Suvonobod mahallasidir. U yerda ham mazkur dastur asosida ishlar bajarilmoqda. Xususan, mahalladagi ariqlarning jami 3 kilometr 840 metr qismiga lotok yotqizish rejalashtirilgani. Hozir bir kilometriga lotoklar joylashtirilgan. Ushbu ishlar uchun 1 milliard 445 million so'mga yaqin mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

Bu mahalla aholisining ham uzoq yillik orzusi ushaldi: tomorqasiga oqar suv yetkazib berildi. Suvonobodliklar tomorqasida turli-tuman mahsulot yetishtirib, qo'shimcha daromad topish imkoniyati paydo bo'lganidan g'oyat mamnun.

— Keyingi yillarda suv yetishmasligi kambag'allikni qisqartirishga jiddiy to'siq bo'layotgan edi, — deydi “Suvonobod” mahalla fuqarolar yig'ini raisi Baxtiyor Umurzoyev. — Oldin poliz va meva-sabzavotni bozordan xarid qilardik. Suv kelgach, hamma tomorqasiga pomidor, bodring, sabzi, piyoz, kartoshka va boshqa ekinlar ekmoqda. Ilgari tomorqamiz bekor yotardi, ekilgan daraxtlarimiz quriyotgandi. Hozirgacha 216 xonadon oqar suv bilan ta'minlandi. Nasib darsa, yana tomorqalarimizdan yaxshi daromad topamiz, ham bozorlarimizning to'kinligiga hissa qo'shamiz.

Shahar va qishloqlarda “Dolzarb bir oylik” safarbarligi qizg'in davom etmoqda. Bu harakatta yoshlar faollik ko'rsatib, ko'pni ko'rgan qariyalar bosh-qosh bo'lmoqda. Odamlar 2025-yil bahori yurtimizga farovonlik, baraka olib kelishiga umid, yaxshi niyat bilan harakat qilmoqda.

**Farhod NE'MATOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

## MULOQOT SHAKLLARI TURFA, AMMO MOHIYAT O'ZGARMAYDI

Bugunning gapi

Yaqinda onlayn platforma orqali bir yig'ilishda ishtirok etishga to'g'ri keldi. Aslida, bu yangilik emas. Chunki pandemiya davrida faol foydalanila boshlagan ushbu muloqot turi bugun ancha ommalashgan. Muloqotda ayni paytda tobora jiddiy tus olib borayotgan suv taqchilligi va obihayotni asrab-avaylash mavzusi ko'tarildi. Suv tiriklik uchun qanchalik kerak bo'lsa, uni tejash ham shunchalik dolzarb bo'lib bormoqda. Muloqot, mulohaza, uchrashuv qay ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, mavzu mohiyati o'zgarmaydi: suvni har qachongidan ko'ra qadrlashimiz, tejashimiz kerak.



### Mavsum boshlanmoqda, suv yetarliymi?

Qishloq xo'jaligida sug'orish mavsumi aprelidan boshlanadi. Shu bois, avvalboshdan “Bu yil dehqonlarimiz uchun qanday kelmoqda? Mavsumda suv yetarli bo'ladi?” degan savolga javob berildi.

Mutaxassislarining aytishicha, 2025-yilning 18-martigacha yurtimizdagi suv omborlariga jami 13 milliard kub metr suv yig'ilgan. Taqqoslaydigan bo'lsak, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 foiz ko'p. Biroq Gidrometeorologiya xizmati agentligining tahlili va dastlabki baholashiga ko'ra, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida 2025-yil sug'orish mavsumida kutilayotgan suv miqdori me'yorga nisbatan kam bo'ladi. Xususan, Qashqadaryoda 65-75 foiz, Surxondaryo, Qoradaryo, Chirchiq va Ohangaronda 70-80 foiz, Zarafshon va Farg'ona vodiysi shimolidagi daryolarda 75-85 foiz, Vaxsh va Norin daryosida 90-100 foiz, Farg'ona vodiysi janubidagi daryolarda me'yordan 95-105 foiz bo'lishi kutilmoqda.

Ayni paytda yurtimizda havo harorati mavsumga nisbatan yuqori. Bu tuproqda nam kamayishiga olib keladi. Suvga talab esa ortadi. Demak, undan yanada oqilona, odilona foydalanish zarur.

### O'ziga xos tajriba

Mamlakatimizda suvni tejash bo'yicha ko'rilayotgan choralar yil sayin kengayib bormoqda. Bu — davr zarurati. Chunki O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun sarflanadigan suvning asosiy qismini qo'shni mamlakatlardan oladi. Yillik yog'ingarchilik miqdoriga qarab 15-20 foiz suv mamlakatimiz hududida hosil bo'ladi.

Yurtimizda suv tanqisligi 2030-yilga borib, 15 milliard kub metrni tashkil qilish ehtimoli bor. Ilgari ishlatilgan yillik 60-64 milliard kub metr o'rta suv ta'minoti bugunga kelib, 51-53 milliard kub metrgacha kamaygan. Ekologik vaziyat, iqlim o'zgarishi va boshqa omillar suvdan muros qilib foydalanishni taqozo etadi. Shu bois, so'nggi yillarda mintaqa mamlakatlari o'rtasida transchegaraviy suv resurslarini boshqarish do'stlik, yaxshi qo'shinchilik va o'zaro manfaatli hurmat qilish ruhida amalga oshirilmoqda. Bu esa qo'shni bilan suv xo'jaligi sohasida yig'ilib qolgan ko'p yillik muammolarni oson hal qilish imkonini bermog'chi. Ya'ni suv kirib kelishi va sari yil sayin kamayib borayotgan haqiqat. Shunday ekan, uning o'rini qanday to'ldirish mumkin? Albatta, tejamkorlik bilan. Kanallarni betonlash, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, sohani raqamlashtirish, suvni samarali boshqarish hisobiga 2025-yilda 10 milliard kub metr suvni iqtisod qilish ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning 2025-yil 30-yanvardagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasida “Atrof-muhitni asrash va ‘yashil iqtisodiyot’ yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida suv xo'jaligi sohasiga doir muhim vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, unga ko'ra, ming kilometr kanal beton qoplamaga o'tkazilib, suv tejoychi texnologiyalar qamrovini 1,6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2,5 milliard metr kub suvni tejashga erishiladi.

Nasos stansiyalarida eskirgan nasos va elektr dvigatellarni zamonaviy, energiya tejamkorlariga almashtirish orqali elektr energiyasi iste'moli 300 million kilovattgacha kamaytiriladi. Irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bilan 390 ming gektar qishloq xo'jaligi yerining suv ta'minoti yaxshilanadi.

Bundan tashqari, farmon bilan “O'zbekiston — 2030” strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasini tasdiqlandi.

Bu yil 500 ming gektar maydonda suv tejoychi texnologiyalar o'rnatiladi. Shundan 75 ming gektarda tomchilatib, 35 ming gektarda yomg'irlatib sug'orish yo'lga qo'yiladi.

### Tejamkor texnologiyalar joriy etish ishlari sust ketyaptimi?

Suv xo'jaligi vaziri Shavkat Hamroyevning aytishicha, bugungi natijalar tahlildan kelib chiqilsa, mamlakatimizda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish darajasi past emas.

2019-yilgacha shunday texnologiyalar joriy qilingan maydonlarning umumiy ko'rsatkichi 28 ming gektarni yoki sug'oriladigan maydonlarga nisbatan 1 foizni tashkil etgan. O'tgan davrda 563 ming gektarda tomchilatib, 92 ming gektarda yomg'irlatib, 59 ming gektarda diskret va 174 ming gektarda boshqa turdagi sug'orish texnologiyalari joriy qilindi hamda 1,2 million gektar yer lazer uskunasi yordamida tekislandi. Bugun jami 1,9 million gektarga yoki ularning umumiy ko'rsatkichi sug'oriladigan yer maydoniga nisbatan 46 foizga yetkazildi.



Shuningdek, hozir yerni sug'orishga davlat byudjetini hisobidan 1700 ga yaqin nasos stansiyasi ishlatilmoqda. Ular tomonidan 2017-yilda 8,3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi sarflangan bo'lsa, tejamkor texnologiyalar hisobiga o'tgan yilda 6,5 milliard kilovatt-soatgacha kamaytirildi. Yillik limitga nisbatan 300 million, 2017-yilga nisbatan 1,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi tejaldi.

Umuman, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida 2030-yilga qadar qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiriladigan maydonlarda to'liq suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinishi belgilab olingan. Bu vazifa uch-to'rt yil ichida uddalanaadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston o'zining suv kodeksiga ega bo'lyapti. Senat ushbu kodeksni ma'qulladi. Bu sa'y-harakatlar mamlakatimizda suvni tejash, asrash, samarali foydalanish va boshqarish ishlari bundan keyin ham izchil davom etishidan dalolat beradi. Bu to'g'ri yo'l. Chunki suv masalasi mavsumiy, bir yoki ikki yillik mavzu emas. U doim kerak va uni asrash har birimizning vazifamiz bo'lishi shart.

**Dilshod ULUG'MURODOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

**Qulaylik**

## ENDI OYLIK VA BAYRAM PULI TUSHMASLIGIGA DAM OLISH KUNLARI SABAB BO'LOLMAYDI

**Ilgari birgina foydalanilgan elektr energiyasiga pul to'lash uchun tuman markaziga borib, kassa oldida soatlab navbat kutishga to'g'ri kelardi. To'lov kvitansiyasini olish, hisoblagich kitobchasiga muhr bastirish kerak edi. Agar fuqaro qarzdor bo'lgani uchun xonadon elektr ta'minotidan uzilgan bo'lsa, uni qayta ulatish, alohida daxmaza edi. Ortiqcha ovoragarchilik, qog'ozbozlikka aylanardi.**

Ba'zilar ko'zoynak taqib, papka qo'ltiqilagan soxta mas'ullar firibi qurboniga aylansa, ayrim “ishbilarmonlar” tekshiruvchi bilan kelishib, oylab emas, yillab kommunal to'lovlarni to'lamay yuraverardi. Bugun esa tarqoqqa inson omidan xoli, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan raqamli iqtisodiyot taqib etilgani qiyinchiliklarni o'tmishga aylantirib, poraxo'rlik hamda qog'ozbozlik singari illatlarni ildizi bilan qo'porib tashladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yaqinda o'tkazilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari korrupsiyani jamiyat tanasidagi saratonga qiyoslarikan, uning birlamchi davosi sohaga raqamli iqtisodiyotni joriy etish ekanini ta'kidladi. Darhaqiqat, to'lov tizimi raqamlashtirilgani jamiyat rivojiga sezilarli hissa qo'shdi. Masalan, hozir uyingizda chiroq o'chib qolsa, “Click”, “Payme” yoki tijorat banklarining mobil ilovasi orqali hisobingizni to'ldirsangiz bas, yonadi.

Kommunal, byudjet, davlat xizmatlari markazlari, soliqlik, bo'yxona, kadastr, DYHXX, GM Uzbekistan va yana bir qancha xizmat turi bo'yicha to'lovlarni to'lashda Markaziy bank Axborotlashtirish bosh markazi davlat unitar korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan “MUNIS” to'lov tizimidan foydalanib kelinmoqda.

“MUNIS” to'lov tizimi orqali ayni paytda 50 dan ortiq xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga to'lovlarni to'lash imkoniyati mavjud. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan “Tezkor to'lovlar tizimi” faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Hozircha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar foydalanayotgan bu to'lov tizimi to'g'ridan to'g'ri bir hisobraqamdan boshqa hisobraqamga pul to'lash imkonini beradi.

Bu tizimning 24/7 rejimida ishlab tadbirkorlik subyektlari uchun ham, byudjet tashkilotlari uchun ham katta qulaylik yaratadi. Masalan, tikuvchilik ustaxonasiga ega tadbirkor shanba kuni katta miqdorda buyurtma tushdi. Uni dushanba kunigacha bajarishi lozim. Buning uchun esa zudlik bilan mato sotib olishi kerak. Ammo qo'lida naqd puli kam. Aynan u aytgan narxda mato sotayotgan boshqa ishbilanmon hisobraqamiga pulni o'tkazmasa yoki naqd shaklda to'lmasa, mato berolmasligini aytdi. Agar tadbirkor “Tezkor to'lovlar tizimi”dan foydalanmasa, pul o'tkazish uchun dushanba kunini — banklar ish boshlashini kutishga to'g'ri keladi. Bu esa tadbirkorning yaxshigina buyurtmadan quruq qolishiga sabab bo'ladi. “Tezkor to'lovlar tizimi” esa masofaviy xizmat ko'rsatish orqali xoh kunduzi, xoh tunda bo'lsin, to'lovni bemaol to'lashda qulaylik yaratadi.



Yoki bo'lmasa byudjet tashkiloti buxgalteriya bo'limi bayram oldidan xodimlarning mukofot pulini hisoblashga ulgurmadi. Endi xodimlar bayramni pulsiz o'tkazishiga to'g'ri keladi. Ammo tashkilot “Tezkor to'lovlar tizimi”dan foydalansa, bayram kuni ham xodimlarning ish haqini to'lay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur tizimdan foydalanib, hisobraqamga pul tashlashdagi ovoragarchilik, eng asosiysi, ortiqcha xarajatdan qutuladi.

Shu yil oxiriga qadar Markaziy bank Axborotlashtirish bosh markazi DUK o'zining mobil ilovasini taqdim etishi rejalashtirilgan. — Ushbu mobil ilovada ko'p xizmatlar bepul bo'lishi kutilmoqda, — deydi Markaziy bank Axborotlashtirish bosh markazi DUK

direktori Dilshod Sarixojayev. — Shuningdek, uning o'ziga xosligi nomingizdagi barcha plastik karta haqida ma'lumot olish mumkinligi hamda faol bo'lmagan kartalarni o'chirish imkoniyati borligidandir. Albatta, bu mobil ilova xavfsizlik va qulaylik nuqtayi nazaridan ancha puxta ishlab chiqilmoqda. Ushbu mobil ilova kelgusida fuqarolarning to'lov imkoniyatini karrasiga o'rtiradi.

To'lov tizimlarining yil sayin qulaylashib borishi xalqimiz uchun ortiqcha ovoragarchilik hamda qog'ozbozlik, sansorlikka duchor bo'lmaslikka zamin yaratadi. Hali bu sohada qilinishi zarur bo'lgan ishlar ko'p. Bugungi harakatlar erangi yutuqlar uchun poydevor bo'lishi shubhasiz.

**Sanjar ESHMURODOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



Adabiy o'ylar

Navro'z — millatimizning asriy umidlari, ezgu niyatlari jam bo'lgan ulug' ayyom. Lekin uni faqat milliy urf-odatlar tarannum etiladigan kun sifatida ko'rsak, nufuzini ancha tushirib qo'ygan bo'lamiz. Navro'z — koinot bayrami, Quyosh va Zaminning o'zaro munosabatlari bilan bog'liq muhim jarayon. Bejiz Navro'zi olam — olamning yangi kuni deb atalmaydi. Donishmand xalqimiz esa uni asrlar bo'yi qutbaraka kuni sifatida ulug'lab keladi.



SHE'RIYATNING NAVRO'ZI

MUSTAQILLIK, SHAXS ERKI, TENGLIGI HAMDA O'ZLIKNI ANGLASH DEMAK

Suhrob ZIYODOV, O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda Navro'z umumxalq sayillari "Qadriyatlar boqiy bo'lsin, Navro'z!" degan bosh g'oya asosida keng nishonlanayotganida o'z gacha ma'no bor. Bu ma'no shundan iboratki, Navro'z ayyomi ko'p mingyillik an'ana bo'libgina qolmay, o'zida ko'plab boqiy qadriyatlarini jamlab kelayotgan kompleks tushunchadir. Uning ildizlari bizga qadar yetib kelgan ilk yozma manbalardayoq mavjud ekan, bu ildiz Mahmud Koshg'ariy, Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy, Yusuf Xos Hojib-u Alisher Navoiyga qadar yetishi haqida bot-bot takrorlaymiz. Shu o'rinda savol tug'iladi: zamonaviy o'zbek adabiyotida, xususan, she'riyatda Navro'z qanday bo'yo'rsatgan?

"Navro'z kuni erkisizlarga erk berar..."

Zamonaviy o'zbek she'riyat asoschilaridan bo'lgan Cho'lpon, o'z uslubiga ko'ra, Navro'zga majoziy ma'no yuklaydi. Uning 1921-yilda yozilgan "Navro'z kuni" she'rida buni ko'rish mumkin.

"Xira, o'chgan, kirlik, kuchsiz dilgalla, Yorug' yog'du, turmush sepgan yangi kun", der ekan buyuk Cho'lpon faqat Navro'z bayramini nazarda tutmagani aniq. Keyingi misrada shoirning muaddasi ayon bo'ladi: "Sira sevinch bermas o'zbek qiziga, Yo'qsa, unga manguilmi qora tun?"

"Turmush sepgan yangi kun" o'zbek qiziga sevinch ulasholmayotgani, uning gendur huquqlari toptalotgani, umriga bahoriy tengkunlik yot ekani, mangu qora tunda yashashga mahkum ekani aytib o'tiladi. Shoir Navro'z ayyomini shodiyona bilan nishonlayotgan er-qizlar emas, uylardan ko'chaga chiqqa olmayotgan tutqun qizlar haqida qayg'uradi. Ular ko'chalardagi o'yin-kulgini devorlardan poylab tomosha qiladi:

Guloy, To'ti, Qumri, Oyxon, Yorqinlar Navro'z kuni devorlarga qaraylar... She'rida lirik qahramonning tushkun ruhiy holati xira, o'chgan, kirlik, kuchsiz, qashshoq, yo'qsil, tutqun, achchiq, gina, qarq'ish, qalin, og'ir kabi sifatlashlar, shuningdek, "Bo'yshoq, qora tun, kishan, zindon, tor uy, devor kabi detallar orqali yanada bo'rtiriladi. Lekin Navro'z — yangi kun kayfiyatini ulashadigan sevinch, entikish, ezgu kun, go'zallik, keng dunyo, chin erk kuni kabi so'z va iboralar, bu tushkunlik orasida "yarq" etib ko'rinadi. Shoir esa she'rning indallosida ochiq fikrni taqdim etadi:

Navro'z kuni erkisizlarga erk berar, O'zbek qizi erkli kunda bo'sholmay, Zindon kabi tor uyidan chiqolmay, Qalin, og'ir devorlarni yiqolmay, Borliq'ini keng dunyoga o'tolmay, Chin erk kunin kuta-kuta telmirar...

Cho'lpon bunda Navro'zning muhim bir sifatiga urg'u berarkan, "bu ayyomda tutqunlarga erkinlik beriladi, nega endi o'zbek qizi erkka chiqolmaydi?" deb savol qo'yadi. O'z savoliga o'zi javob berib qo'ya qoladi: "chin erk kuni hali kelmadi". Demak, shoir uchun haqiqiy Navro'z — chin erk kuni, millatning mustaqillik kuni keldi. Cho'lpon ijodida bahor, ko'klam, Navro'z va uning atrofida neki badiiy vosita bo'lsa, barchasi erk timsoli bo'lib keladi. Bu fikrimizga shoirning "Ko'klam keladilar", "Binafsha", "Bahor va men", "Yana ko'klam", "Bahorda", "Bo'ychechak", "Ko'klam yomg'iri", "Bahorni sog'inim" kabi o'nlab she'ri dalil bo'la oladi. Agar bu she'rlarda har bir so'z shunchaki o'z ma'nosida — tabiat hodisalari tasviri sifatida qo'llanganda Cho'lpon biz bilgan Cho'lpon bo'lmasdi. Ya'ni Cho'lpon she'riyatining asl siri uning timsollarda yashirin badiiyatida mujassam. Ergar Navro'zni millatning uyg'onishi, erkning tug'ilish ayyomi deb tushunsak, Abdulhamid Cho'lpon haqiqiy Bahor va Navro'z kuychisidir.

Umuman olganda, jaded davri lirik she'riyatida bahor va Navro'z motivlari erkni, ayollar huquqini tamsil qilib keladi deb ayta olamiz. Buni nafaqat Cho'lpon, shuningdek, Elbek va Botu kabi shoirlar ijodida ham ko'rish mumkin.

"Navro'zi bedana o'rganchik sayrar..."

O'tgan asrning 30-60-yillar she'riyatida Navro'z o'z-o'zidan bahor, navbahor ifodalarga singib ketadi. Milliy qadriyat sifatida asrlar bo'yi nishonlab kelgan xalq sayliga "eskilik sarqiti", "diniy urf-odat" deb

rasmiy taqiq qo'yiladi. Lekin bu davrda xalq orasida uni nishonlash o'ta qattiq nazoratga olingan deb bo'lmaydi. Bu davrda ko'klam ayyomi — mehnat va kurash timsoliga aylanadi. Buni ushbu davr shoirlari ijodining har birida ko'rish mumkin. Hamid Olimjonning hozirga qadar xalqimizning sevimli qo'shiqlaridan biri sifatida kuylab kelinayotgan "O'rik gullaganda" she'rida ham bir daraxtning gullashidan boshlangan poetik kayfiyat hayot, go'zallik, baxt haqidagi kechinmalarga ulanib ketadi. "Faqat baxtni kuylagan ovoz" orqali: Umrida hech gul ko'rmay yig'lab O'tganlarning haqqi bor senda. Har bahorni yig'lab qarshilab Ketganlarning haqqi bor senda... deganida baxt kuychisi Hamid Olimjon kimlarni nazarda tutgan bo'lishi mumkin?

Gap shundaki, ushbu she'r 1937-yil bahorida yozilgan. Bu davrda millat oydinlarining qatag'oniga start berilgan edi. Sanalarga e'tibor bersak, qatag'on qamchisi 1937-yil yozidan boshlab serpalgan bo'lsa, shoir bu she'rni o'rik gullagan payti, ya'ni erta bahorda yozgan. Bundan shoir yaqinlashib kelayotgan fojiani ko'lamini his qilgan oydinlashadi. Aynan shu davrdan so'ng bahor motivi yangi o'zangaburildi, deya olamiz. Endi bahorga faqat baxt, omonlik, to'kinlik timsoli bo'lish "vazifasi topshiriladi".

Bu davrda tabiatning betakror rassomi bo'lgan ustoz Oybek ijodida ham lolalar — qizil bayroqqa (1926-yil), oq gullar — mash'alla (1965-yil) aylanadi. Shunday bo'lsa-da, Oybekning 60-yillardagi bahoriy she'rlarida lirik kayfiyat ortib, siyosiy bo'yoqdorlik kamaya borgan. Biroq taomilga muvofiq, lirik qahramon



ish bilan badi: 1965-yilda yozilgan "Bahor keldi — kumushrang kimxob" she'rida aytilishicha, kutilmaganda boshlangan yomg'irni kattalar "bo'ri tug'di", deya qarshilasa, bolalar daladan shiyponga yuguradi, lekin bu uzoq cho'zilmaydi va yana ular yomg'ir ingan dalaga qaytadi. Keyingi yillarda yozilgan "Bahor yomg'iri" she'rida esa yomg'ir paytida bolalar "tok ochar" bilan mashg'ul ekani tasvirlanadi.

G'afur G'ulomning shu davrda (1961-yil) yozilgan "Bahor ohanglari" she'ri: O'rik gullarini emar bolari, Nasrin yoproq'ida tiraydi shabnam, Ipak qurti tuxmida hayot asari, Olam nihok oqshom bir zebo sanam deb boshlanadi. Ilk bahor va Navro'z ayyomi o'rtaida yuz beradigan hodisalarni shoir rassomdan-da ortiq tasvirlaydi. "Olamning nihok oqshomi", deb baho beradi bu kunlarga. Keyingi bandlarda "navro'zi bedana o'rganchik sayrar" deya ilk ko'klamning ta'rif obdan berilar ekan, she'r so'ngida: Tongotar ufqi loladay yirtar Timmag'ur mehnatning zabardast tovshi. Har yerda hukmron tanti va lobar Omonlik zamonning yenguvchi ishi, deya xulosa qilinadi.

Bu misraning ayrim sifatlarini tushirib qoldirsak, ufqi timmag'ur mehnatning tovushi yirtishi, har yerda zamonning yenguvchi ishi hukmron ekani ayon bo'ladi. Ya'ni shoir she'r boshidan beri ta'riflagan bahor go'zalliklari tongotar qadar davom etadigan mehnat shovqin-suroniga qorishib ketmoqda. Buni ayni zamon kishisining haqiqiy kechinmalari, desak adashmaymiz. Bu davrning ulkan adiblari bahorni, olamlarning uyg'onish ayyomini maishiy turmush jarayoniga qorishirib yuborgan chanchalik achinarli! Lekin ularning iste'dodi sabab shu davrda ham bahor va Navro'z tarannumi davom ettirildi, insonlar qalbiga bahor zavqi, go'zalliklari yetkazildi. She'riyatda bahor yashab qoldi!

"Qizg'aldoq bargiday uchar dildan g'am..."

O'tgan asrning 60-yillarini "zamonaviy o'zbek she'riyatining bahori", degim keladi. Shu davr shoirlari sabab she'riyatimizda inson qalbi baland pardalarda kuyilana boshladi. Samimiy tuyg'ularning sof ifodasi she'riyatning asosiy sifatiga aylandi. Bu davrning eng bahoriy shoiri, shubhasiz, Abdulla Oripovdir. Shoir ijodida bahor — alohida badiiy va falsafiy hodisaga aylangan bilan ahamiyatli.

Abdulla Oripovning "Sen bahorni sog'inmadimgi?" she'ri kirib bormagan o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Bunda bahor muhabbat timsoliga evriladi. "Uyg'onguvchi bog'lami kezzim", deya shoir o'quvchini yurtning dilbar go'shalariga boshlab ketadi. Bu yerda hech kim "ter to'kmaydi", hech kim "mashinalar shovqinida adashmaydi". Shoir o'quvchiga o'zi tuygan eng go'zal hislarni ulashib boradi. She'rda lirik qahramon o'z sevgilisini izlar ekan, usiz bahor ham g'aribdek ko'rinadi. "Sen bahorni sog'inmadimgi?" — ishongisi kelmaydi shoirning. — Nahotki sog'inmadimgi? O'quvchi ham beixtiyor yon-atrofidagi odamlarni savolga utgisi keladi: "Sen bahorni sog'inmadimgi?" Shu savol bilan shoir o'z kayfiyatini barchaga "yuqtiradi":

Mana bugun Navro'zi olam, Do'stlaringa gullar tutarman. Qaylarsadon, sevgili erkam? Qo'lmda gul seni kutarman. Umrim bo'yi chorchab o'tarman, — Sen bahorni sog'inmadimgi?

Kezi kelganda aytish lozim, "Bahor" she'rida Abdulla Oripov faqat bir lirik kayfiyatni chizish bilan cheklanmaydi. Shoir tuyg'ular tizginini ushlagan holda lirik qahramonning bir ruhiy holatidan boshqasiga o'tishini, lirik kayfiyat tadrijini ko'zdan bera olgan. Bu shoir badiiy mahoratining eng yorqin jihatlari.

Shoir yana hayot haqida, undagi insonlar, ularning g'am-tashvishi haqida o'ylay boshlaydi. Shuning o'zi tiriklikning, bahorning ma'nosi ekani an'anglab qoladi. Ammo bu oxiri emas, xulosadan keyin undan ham baland bir xulosa taqdim etish Abdulla Orif iste'dodining "tashrif qog'oz"idir: Qizg'aldoq bargiday uchar dildan g'am, Toshqinlar kiradi qalbinga manim. Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam, Mening O'zbekiston — dilbar Vatanim. Shoirning qalbidan g'amni aritgan, unga toshqinlar olib kirgan tuyg'u — Vatan! Axir bu bahor — yurtning bahori. Ana shu kechinmalarga sabab bo'lgan bahor ham shu yurt uzra gilam yozgan-ku. Eng muhimi, hatto bahor ham o'tib ketadi, lekin bu dilbar Vatan qoladi! Faqatgina u shoirning "charchagan ruhi"ga ilhom baxsh etadi oladi: Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol, Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

Vatansiz bahor ham, uyg'onish ham yo'q. Bahor shu yurtning bir qiyofasini chizib berdi, xolos. Bahorda uyg'ongan neki bor, hammasi shu yurtda mujassam. Asl bahor — ana shu!

"Navro'zda navro'zni ko'ming, deyshdi..." O'tgan asrning 80-yillari oxirida Navro'zga rostakam hujum boshlandi. Uni nishonlash va kuyilash taqiqlandi. Shunday davrda o'zbek ziyolilari Navro'z targ'ibotiga kuch berdi. Bu davr she'riyatida Navro'zga ijtimoiy ruhda murojaatlar ko'plab uchraydi. Muhammad Yusufning "Navro'z" she'rida bu holat quyidagicha tasvirlanadi: Navro'zda navro'zni ko'ming, deyshdi, Ko'ming va sukutga cho'ming, deyshdi. Eskilik sarqiti asli bu sayil, Ey bandayi mo'min, deyshdi. Mustaqillik sari tashlangan ilk qadamlardan biri sifatida Navro'z umumxalq bayrami bo'lib nishonlana boshlagani ham bu ayyomning o'zbek xalqi hayotidagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Yuqoridagi she'r esa bunday yakunlanadi: Joningdan aylanay, Navro'z, kel endi, Qirg'yil qirg'in dan ham omon qolganim. Men seni hech kimga bermayman endi, Yalmoz'iz qo'ynidan tortib olganim. "Qirg'yil qirg'in" iborasi bilan shoir undan ko'proq muddatga ishora qilmoqda. Bu davr Navro'zni taqiqlash kampaniyasi boshlangan 20-yillarga qadar qamrab oladi. Bu siyosat naqadar xato ekani, xalqning qon-qoniga singib ketgan ulug' ayyomi undan uyulib olib



Bahor, qatra yoshim aylagil qabul, Onam boshiga ham bordingmikan, ayt... Shoir bahoriga yetolmagan ona haqida, qabrini farzandi emas, bahor ziyorat qilayotgan ona haqida, butun tabiatni uyg'otib kelgan ko'klam uyg'ota olmaydigan ONA haqida o'ylaydi. Ammo bu "soqog' daho"ga ming yulvorsang ham birgina uni — shoiriga hayot baxsh etgan onani qaytib berolmaydi.!

Ona xotirasidan boshlangan mangu hayot haqidagi o'ylar esa bevosita yangi hayot haqidagi xayollarga ulanadi: Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ul-u, Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin. Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u... Bahor tetapoya go'dakday shirin.

Kezi kelganda aytish lozim, "Bahor" she'rida Abdulla Oripov faqat bir lirik kayfiyatni chizish bilan cheklanmaydi. Shoir tuyg'ular tizginini ushlagan holda lirik qahramonning bir ruhiy holatidan boshqasiga o'tishini, lirik kayfiyat tadrijini ko'zdan bera olgan. Bu shoir badiiy mahoratining eng yorqin jihatlari.

Shoir yana hayot haqida, undagi insonlar, ularning g'am-tashvishi haqida o'ylay boshlaydi. Shuning o'zi tiriklikning, bahorning ma'nosi ekani an'anglab qoladi. Ammo bu oxiri emas, xulosadan keyin undan ham baland bir xulosa taqdim etish Abdulla Orif iste'dodining "tashrif qog'oz"idir: Qizg'aldoq bargiday uchar dildan g'am, Toshqinlar kiradi qalbinga manim. Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam, Mening O'zbekiston — dilbar Vatanim. Shoirning qalbidan g'amni aritgan, unga toshqinlar olib kirgan tuyg'u — Vatan! Axir bu bahor — yurtning bahori. Ana shu kechinmalarga sabab bo'lgan bahor ham shu yurt uzra gilam yozgan-ku. Eng muhimi, hatto bahor ham o'tib ketadi, lekin bu dilbar Vatan qoladi! Faqatgina u shoirning "charchagan ruhi"ga ilhom baxsh etadi oladi: Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol, Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

Vatansiz bahor ham, uyg'onish ham yo'q. Bahor shu yurtning bir qiyofasini chizib berdi, xolos. Bahorda uyg'ongan neki bor, hammasi shu yurtda mujassam. Asl bahor — ana shu!

"Navro'zda navro'zni ko'ming, deyshdi..." O'tgan asrning 80-yillari oxirida Navro'zga rostakam hujum boshlandi. Uni nishonlash va kuyilash taqiqlandi. Shunday davrda o'zbek ziyolilari Navro'z targ'ibotiga kuch berdi. Bu davr she'riyatida Navro'zga ijtimoiy ruhda murojaatlar ko'plab uchraydi. Muhammad Yusufning "Navro'z" she'rida bu holat quyidagicha tasvirlanadi: Navro'zda navro'zni ko'ming, deyshdi, Ko'ming va sukutga cho'ming, deyshdi. Eskilik sarqiti asli bu sayil, Ey bandayi mo'min, deyshdi. Mustaqillik sari tashlangan ilk qadamlardan biri sifatida Navro'z umumxalq bayrami bo'lib nishonlana boshlagani ham bu ayyomning o'zbek xalqi hayotidagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Yuqoridagi she'r esa bunday yakunlanadi: Joningdan aylanay, Navro'z, kel endi, Qirg'yil qirg'in dan ham omon qolganim. Men seni hech kimga bermayman endi, Yalmoz'iz qo'ynidan tortib olganim. "Qirg'yil qirg'in" iborasi bilan shoir undan ko'proq muddatga ishora qilmoqda. Bu davr Navro'zni taqiqlash kampaniyasi boshlangan 20-yillarga qadar qamrab oladi. Bu siyosat naqadar xato ekani, xalqning qon-qoniga singib ketgan ulug' ayyomi undan uyulib olib

bo'lmasligini ming yillik vaqt sinovlari ko'rsatib turibdi. Yana oradan yillar o'tar, shunda ham bu millat "Qadriyatlar boqiy bo'lsin, Navro'z!" degan xitobni baralla aytaveradi. Chunki Navro'z — o'zligimiz timsoli!

Mirzo Kenjabekning 1989-yilda yozilgan "Navro'z qo'shig'i" she'rida ayni shu haqiqatlar kuyiladi: O'rgatib har dilga hurlikni, Ko'klam isyon qilaveradi. Namoyishga chorlab borliqini, Navro'z qaytib kelaveradi.

Bu bahoriy namoyish nafaqat borliqda, balki qalblarda ham yuz beradi. Insonlar, davrlar o'tadi, o'zbek nomli xalq dunyoda bor ekan, qozonlarda sumalak qaynaydi, Navro'z sayillari davom etadi. Shoir aytganidek: Mirzo ketsa, qaytib kelmaydi, Navro'z qaytib kelaveradi.

Otashnafas shoira Halima Xudoyberdiyeva Navro'z xalqning birligi ramziga aylangan haqida: To'zib, qayg'u chekkan bir jon, G'urbatlariga cho'kkan bir jon, Boshini ko'p eggan bir jon, Bosh ko'targan paytda kelding, deya urg'ulaydi.

Mustaqillik arafasida Navro'z xalqni birlashtiruvchi qudriyat sifatida yaqqol namoyon bo'ldi. Chunki bahoriy sayillarda el bir-biridan hol-ahvol so'raydi, quvonch tashvishlari, non-tuzini bo'lishadi. Bu esa odamlarni o'zaro yanada yaqinlashtiradi, millat sifatida ham o'stiradi.

"Yuragim — Navro'z-ruhim — hamaldir..."

Navro'z xalqning har og'iru yengil kuni birga bo'ldi. Adabiyotning asl vazifasi bo'lgan insonning eng ichki tug'yonlarini tasvirlashda ham Navro'zu bahor motivlari asqatib kelmoqda. Yulduzlar o'tida boshim mash'aldir, Yerning zax qo'rida oyoqlarim — muz. Yuragim — Navro'z ruhim — hamaldir, Jonimda — saraton, qismatimda — kuz, deb yozadi Usmon Azim.

Yurakning navro'zligi — yangi ifoda, yangi tashbeh. Qismatning kuzgi izg'irilarida, jonning saraton o'tashida yonishi bir yon bo'lsa, ruhning hamalida yurakning Navro'z kabi yashnab turishi bir yon. Demak, yurak har lahza yangi hayotni yashab kelmoqda. Demak, yurakning kun-u tuni teng. Demak, yurak eng yashil tuyg'ulardan iborat. Demak, yurak — adabiy uyg'onishda, mangu sevishd! Eshqobil Shukurning "Hamal ayvonida kuyiladi havo" she'ri ham ana shunday ichki bahoriy kayfiyat bilan yo'g'rilgan: Hamal ayvonida kuyiladi havo, Qizg'aldoq ko'shini qirlarga tushdi. Meni yetaklab o't, ey Qari Navo, Yuragim yurtda yulduzlar pishdi.

Hamal ayvonida kuyilayotgan havoni tinglash uchun qirlarga qizg'aldoq qo'shini tushadi. Bu yerdan lirik qahramonni Qari Navo sadosi yetaklab o'tadi. Bu navo shoir yuragida yulduzlarni pishiradi. Demak, yaqin orada ularning ham yerga to'kilishi kutilmoqda. Sovigan ko'ngilda o'tlar chaqnay boshlaydi. "Meni yetaklab chiq, jon singlim Sabo", deb xitob qiladi shoir. Hamal ayvoniga Hayot yangi ko'yaklari bilan chiqadi. Bu ayvonda hayot barq uradi. Eshqobil Shukur shu kichik she'rida Bahoni, hamalni — hayot yashil libosida bir tovlanib o'tadigan ayvonga mengzaydi. Bu ayvonda abadiy qolib bo'lmaydi, ammo shu yerda inson bir muddat nafas olib yashashga ishtiyog'ini qayta tiklaydi, o'zida quvvat hosil qiladi. Bunda Hamal ayvoni

"Navro'ziy nasimlar keldilar nogoh..."

Navro'z va Bahor she'rlarda doim ham bunday chuqur ma'no tashib kelmaydi. Shunday davr ham bo'ldiki, shunchaki ularga bag'ishlangan badiiy jihatdan sayoz madhiyalarni ham she'r sifatida taqdim etish urfga kirdi. Bunday bitiklar hozir ham ko'zga tashlanib turishi achinarli. Chunki bugunga kelib hech kim Navro'zni kuyilashga qarshilik qilmaydi, uni timsollarga o'rab ifodalash, badiiy tafakkur chig'irig'idan o'tkazishga hech kimda ehtiyoj yo'q. Yuz yillar davomida siqilgan, taqdirlangan, chetga uloqtirilgan ulug' qadriyatning bugungi she'riyatdagi missiyasi tamom bo'ldimi? Aslo! Hozir ham zamon shoirlari Navro'zni baland pardalarda va badiiy-estetik jihatdan yuqori darajada kuyilmoqda. Bugunga kelib u — shukronalik, abadiy hayot, olamning mukammalligi ramzi sifatida she'rlarda yashab, she'rli may yashatib kelayotir. Shodmonqul Salomning "Navro'z zona" she'ri ana shunday asarlardan: Shul bahordan ko'nglimni bir to'ldirsaydim, To'lgan dilga bir boychechak undirsaydim. Ochilsaydi yuragimning eshiklari Yuragimga qadirlar ochilar qo'ndirsaydim. Bahorda qalding'ochlar xonadonlarda in qurishi epizodini shoir yurakka ko'chirish orqali ko'ngildagi nedandir ilhaqlikni badiiy ifoda qiladi. Ko'ngilning to'lmisligiga iloh ham shu bahordan. Shoirda, demakki, she'rda ham shu ilhaqlik davom etadi: Haqdan menga ruxsat olib berolsalar, Yuragimning borligini ko'rolsalar, Qo'shiqlarim tag'in qayta yaralsalar, Yuragim o'z-o'zini ko'zimga ko'ndirsaydim... Shoirning navro'z zonalari bu badda yaqqolroq ko'rinadi. Uyg'onish — bahoriy sifat. Bu misrani pastdan yuqoriga qarab o'qib ko'ring: avval u o'zini uyg'onmoqqa ko'ndirishi kerak, shunda go'shiqlari qayta yaralishi mumkin, lekin buning uchun unda yurak bo'yo' ko'rsatishi zarur, buning uchun esa Haqning ruxsati, inoyati kerak. She'rning navro'z zonalig' shunda: uyg'onish uchun Haqning ruxsati shart! Xuddi tabiatning uyg'onishi, maysalarning uyg'onishida bo'lgani kabi!

She'r so'ngiga qadar shoir o'zidagi uyg'onish ehtiyojini qudriyat shahrlab boraveradi va oxirida "Bir shoirning borligini bildirsaydim", deya entikadi. Bu — shoir qalbidan kechayotgan she'rga intiq qalbidan qaytib. Ayni shu kayfiyat muallifga mazkur she'rni taqdim etgan. Bunda Navro'z shoirning ilhomini sifatida talqin qilinmoqda, desak, nima deysiz? Mansur Jumayevning "Biz kutgan fasti" kitobidan "Navro'z zoma" degan she'r o'rin olgan. Bu she'rni shubhasiz "hayot qo'shig'i" deb atash mumkin: Tun edi navosiz navo daydigan, Bir sovuq, bir qora havu daydigan. Navro'ziy nasimlar keldilar nogoh Ko'ksimni ko'klarga havolaydigan. Bir navosiz navo daydigan — umidsizlik kezib yurgan tunda, sovuq va qora havu daydigan tunda bahor nasimlari esa boshlaydi va u shoirning ham ko'ksini ko'klarga ko'taradi... Umidsizlik kezib yurgan tunda bir yog'du paydo bo'lishi shu taxlit tasvirlanmoqda. Shoir o'z-o'ziga shunday dalda bera boshlaydi, ya'ni yuqoridagi she'rlardan farqli ravishda endi shoirning o'zi bahorga qarab boradi. Tun ipini uzadigan shamni izlab kunduzni topib oladi, ko'klamni kuyilayotgan she'rilar to'qib Yerni "navolaydi", yomg'irdan baxtning isini tuya boshlaydi, baxmal adirlardan varraklar o'sib chiqadi, tuproqdan tiriklik ifori g'ul shaklida unib chiqib boshlaydi, davolaydigan sumalaklar pishiradi... Bahor — hayot olib keladi, hayot! Shoir esa shu hayotni kuyilaydi, navolaydi, shu bilan o'zini davolaydi, ruhini ko'klarga yo'llaydi — ruviday... Mansur Jumayevning navro'zi xuddi o'zdek, inja hislagara to'la, bir oz beqaror, bir oz sokin, biroz sirli... muhimi — bahoriy!

Navro'z o'zbek she'riyatida har doim kuyilgan, bundan keyin ham kuyiladi. Navro'z degan so'z, unga toshlar otilganida ham she'riyatda yashab qolgan, xuddi xalq qalbi-yu ruhiday yashaganidek. Chunki she'riyat ham millat qalbining ko'zgidir. Navro'z — hurlik! Navro'z — mehnat, kurash, jasorat! Navro'z — millatning o'zligi! Navro'z — go'zallik! Navro'z — ilhom! Navro'z — hayot! Navro'z — olamning va insonning uyg'onishi! Navro'z — yuz yillik o'zbek she'riyatida shunday!

# ABDULLA O'RIPOV

## Vatannomasi

(Esse)

O'zbekiston Qahramoni, tom ma'nodagi xalq shoiri Abdulla Oripov ijodining bosh mavzusi — vatan haqida yuksak iste'dod bilan yozilgan she'rlari, desak mulohaza bo'lmaydi.

Abdulla Oripov she'riyat olamiga yuksak iste'dod, zabardast qalam va o'ktam ovoz bilan kirib kelgan edi. Garchi uning birinchi kitobi "Mitti yulduz" deb atalsa-da, aslida, katta va porloq yulduzning adabiyot osmonida porlay boshlaganidan darak bergan ijodiy hodisa edi.

Shoir yigirma uch yoshida "Men nechun sevaman, O'zbekistonni?" deb bor ovozi bilan hayqirdi. Yuraklarni g'urur va iftixorga to'ldirgan bu chaqmoq she'r e'lon qilinishi bilan muxlislar qalbidan mustahkam o'rindi. Qisqa muddatda she'rxonlarning sevimi asariga aylandi, qo'lma-qo'l o'qildi. Tillardan dillarga ko'chdi:

**Men nechun sevaman O'zbekistonni,**  
**Tuproq'in ko'zimga aylab to'rtiyo.**  
**Nechun Vatani deya yer-u osmonni,**  
**Muqaddas atayman, atayman tanho...**

Bu she'rning har bir satri shoir yuragidan vulqonday otilib chiqqan qaynoq lavani eslatadi. Lava toshlarni eritib yuborgan kabi she'r ham yuraklarga singib, tomirlarda jo'sh urishini uni o'qigan vatandoshlarimiz hamon his qiladi:

**Xalqim, tarix hukmi seni agarda**  
**Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,**  
**Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,**  
**Mehrim bermasdim o'sha muzlarga?**

Muzga mehrini berish, muzni sevishga uncha-muncha insonning irodasi, kuchi yetmaydi. Buning uchun shaxs, chin vatanparvar bo'lish kerak! Shoir ana shunday otashin muhabbat ila yurtiga buyuk mehriini izhor etadi. Faqat ugina bunday misralarni yoza oladi. She'r shunday qudratli satrlarda davom etadi:

**Vatanlar,**  
**Vatanlar,**  
**Mayli, gullasin,**  
**Bog' usin manguilik muzda ham, ammo**  
**Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun**  
**Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!**

Shoirning bashorat bilan yozilgan ushbu she'rini kengroq tadqiq etsak, naqadar hayotiy ekanini, bugun dunyoning ayrim mamlakatlarida sodir bo'layotgan boylik vasvasasi jarayonida ko'rish mumkin. O'z vatanning yer osti va yer usti boyliklarini talon-toroj qilayotgan ayrim davlatlarni ko'rganda jiddiy afsuslanamiz.

Biz esa bog'lar barpo etayotganimiz, yurt boyliklarini asrab-avaylab kelayotganimizdan faxrlanamiz. Ilovo, shunday vatanga aslo ko'z tegmasin!

Shoir ijodida vatan mavzusida yozilgan yuksak va betakror she'rlardan yana biri "O'zbekiston" qasidasidir. Bu betakror she'r ham shoirning vatansevar va vatanparvar yuragida chaqmoqday tug'ilib, muxlislar qalbidan muhrlangan:

**Bir o'lka bor dunyoda, biroq**  
**Bitilmagan dostonidir bori:**  
**Faqat o'z qalamim manim,**  
**O'zbekiston — vatanim manim.**

Shoir "o'z qalamim manim", deb kamtarona misralarni bitgan bo'lsa-da, qasida o'zbek xalqining bo'y-bastini, dunyo tarixida barqaror o'rni borligini, o'tmishi ibratli, kelajagi buyukligini go'zal va betakror satrlarda faxr va g'urur bilan yozgan. Masalan: "Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor, Ko'ragoniy javdallarida", "Dengiz ortin yoritdi ilk bor, Beruniyning aql mash'ali. Kolumba bor alamim manim, O'zbekiston — vatanim manim", "Temur tig'i yetmagan joyni, qalam bilan oldi Alisher", "Buyuklarga baxsh etgan daho, ona xalqim, o'zingsan buyuk", "Jaloliddin samani bo'lib, Sakrab o'tding Amudaryodan", "Shahidlarning qirmiz qonidan, Alvon bo'ldi qora tunlarning", "U sen eding, o, dehqon yurtim, Turar eding yalangto'sh, yayov". "Bir o'g'lingdek men ham bu zamon, Kechmishingni qildim tomosha". Asal tomchilaridagi to'li va teran tafakkur bilan sug'orilgan ushbu misralarda shoir yuragidagi O'zbekiston yorqin namoyon bo'lib, o'quvchi yuragiga ko'chadi.

Qasida shoirning ulug' niyatlari bilan bunday yakun topadi:

**Asrlarning silsilasida**  
**Boqiy turgan koshonang sening.**  
**Ulug' bashar oilasida**  
**Mangu yorug' peshonang sening**  
**Mangu yorug' maskanin manim,**  
**O'zbekiston — vatanim manim.**

Abdulla Oripov umrining oxirigacha O'zbekiston, vatan mavzulariga sodiq qoldi. U "O'zbekistonim, senga" she'rini bunday satrlar bilan boshlaydi:

**Aylayin qalbimni tortiq**  
**nurli bo'stonim, senga,**  
**Sen vatandirsan, fidodir**  
**tanda bu jonim senga.**  
**Bebahosan, asragayman gavharim,**  
**deb men seni,**  
**Sen qaroq bo'lsang agarda,**  
**sadqa mujgonim senga...**

She'rmi o'qigan sayin vatanga mehringiz ortib boradi. Har bir satrning o'sha ohangi, yurakka yetib boradigan nolalari bor. Shoir she'r musiqasining notalarini o'z o'rinda mahorat bilan ishlatganiga qoyil qolmay iloj yo'q. Shu o'rinda shoir she'rlarida o'ziga xos musiqiy ohang qorishib ketganini ta'kidlamochimiz. Ayniqsa, Abdulla Oripov o'z she'rlarini yuksak mahorat bilan o'qiganida atrofini shirin va fayzli sukunat bosadi. Shoirning o'ktam va dadil ovozi yuraklarni zabt etadi, vujudingizni she'rning mazmunidan kelib chiqib, goh quvonch, goh iztirob egallaydi.

Abdulla Oripov she'r o'qishining o'zi yuksak bir san'at. U she'r o'qiyotganida betakror nolalar har bir harfdan tortib, satrlargacha titrab turadi. Masalan:

**Yor-u do'stlar jam bo'libdir,**  
**to'y qiltur o'zbek elim.**  
**Men degayman xush kelibsan,**  
**do'st-u mehmonim, senga...**  
**Dilda borim sen uchundir,**  
**qo'lda torim sen uchun,**  
**Qayda bo'lsam talpinurman,**  
**O'zbekistonim, senga.**

She'r O'zbekiston mavzusida bo'lgani uchun unga xalqimiz an'analari singdirib yuborilgan. To'y ta'rifi shunchalar tabiiy chiqqanki, go'yo bu to'yda shoir mehmonlarni o'zi kutib olayotganday jonli hayot manzarasi aks etgan. Bu ijodkoming ishonirish san'ati.

O'zbekiston va vatan mavzusida yozilgan har bir she'rda yangi Abdulla Oripovni, yangi fikr va tuyg'ularni ko'ramiz. Shoir, ayniqsa, vatan



mavzusida yozganida yuksak tuyg'ular va noyob fikrlarga tayandir. Bunday haroratli she'rlarni o'qiganimizda uni qog'oz qanday ko'tardi ekan deb o'ylaysiz. Shoirning o'tli nolalarini qog'oz ham, qalam ham his etsa kerak...

Ana shunday o'tli, dardli va yurakdan to'kilgan javohir she'rlardan yana biri "Vatan" deb ataladi:

**Vatan deb men bayon qildim,**  
**ayo do'stlar, muxammasni,**  
**Vatanni kim ulug' bildi,**  
**aziz bilim men u kasni**  
**Vatan deb jo'sh urar ersa,**  
**ko'targum boshima xasni,**  
**Vatandan ayri ko'ngilni bilingki,**  
**yayratib bo'lmaz.**

**Baayni bandi bulbulni**  
**chamansiz sayratib bo'lmaz.**  
Abdulla Oripovning "Vatannoma"sidan mustahkam o'rini olgan bu she'rning yozilganiga o'ttiz yildan oshirdi. Uni hamon mashhur hoziflar kuyga solib, qo'shiq qilib, yurakdan kuylab keladi. She'rxonlarning ma'naviy mulkiga aylangan.

**Nadomat birla boqayman**  
**vatansizlarga har doim,**  
**Egib boshini zor yig'lar,**  
**agarchi davlati qoyim,**  
**Faqir bo'lsam-da, bor yurtini —**  
**toj-u taxtim borar joyim.**  
**Vatandan ayri ko'ngilni bilingki,**  
**yayratib bo'lmaz.**

**Baayni bandi bulbulni**  
**chamansiz sayratib bo'lmaz.**  
Abdulla Oripov vatan mavzusini tabarruk deb bilgani bois, hech qachon yodidan chiqarmagan. Qalbida mudom O'zbekiston, vatan mavzusi u bilan birga yashadi. Bir laha bo'lsin, yuragini, qalamini tark etmadi.

Shoirning vatan mavzusidagi yana bir to'rtligiga e'tibor beraylik:

**Balki chaman bo'lar dashti Karbalo,**  
**Balki behisht mavjud yulduzlar aro.**  
**Mening O'zbekiston — vatanim bordir,**  
**Ularning baridan a'loroq, a'lo!**

**Barchaga bag'rini ochar shu vatan,**  
**Munavvar kunduz-u qorong'i tunda.**  
**U seni farzand deb olgaysan tan?!  
Hamma gap shunda...**

Biz vatanni taniganimizdek, vatan ham o'z farzandlarini tan oladimi-yo'qmi, degan nihoyatda dolzarb mavzuni qalamga oladi. Uning haqiqiy fidoyi farzandi bo'lishga da'vat etadi.

Shoir "Musofir" she'rda vatandan yiroqda bo'lgan kimsani — "ajrab ketgan bo'lsa et bilan timoq"ni, "Musofir desalar to'g'ridir tuproq", deydi. Shunday holat ro'y berib, odam musofirga aylanganda ham uning vatani bo'lishi kerakligini umid bilan bunday izohlaydi:

**Behad ulug' erur zamon matlabi,**  
**Zaminda musofir emasdir bashar.**  
**Har kim vataniga yarashgan kabi,**  
**Har kimga dunyoda vatan yarashar.**

Vatanga yarashganlar ham, vatan yarashganlar ham dunyoda baxtli insonlardir. Vatan baxtini ko'rib yashash har bir insonga nasib etsin!

Abdulla Oripov vatanga chin farzand bo'lishi mumkinligini falsafiy misralari orqali "Vatan farzandi" she'rda bunday ifodalaydi. "Goho yosh bolaga o'xshaydi Vatan", deb yozadi. "Begona ko'zlardan asramoq darkor", deydi. "Vatan ulug' p'irga o'xshaydi gohi", deb davom etadi. Va uni "yursa tovoniga botmasin", deb "yo'ldan olib qo'ying har xil toshlarni", deb ogohlantiradi. She'rga bunday teran xulosa yasaydi:

**Kim uning xizmatin etolsa ado,**  
**Ikki dunyoda ham bo'lmaydir kam.**  
**O'zini tamasiz qildimi fido,**  
**O'sha zot vatanga farzand chinakam.**

Vatanga haqiqiy farzand bo'lish ham oson emas. Vatanga fido bo'lish biddan mard, jasur, botir, halol va pok bo'lishni talab etadi.

Abdulla Oripov hayotlik paytida bemorligi sabab Turkiyada davolangan. Shoirning singlisi Bibisira o'pa uni ko'rgani Turkiyaga boradi. Shunda shoir "Vatan mehri" degan ajoyib she'r yozib, singlisiga bag'ishlaydi. She'rda shoir o'z uslubiga sodiq qolib, umrining yaxshi damlari bilan birga sinovli kunlarini ham eslaydi:

**Noshukrlik yomondir,**  
**yashadik-ku harqalay,**  
**Qayga borsam, muxlislar**  
**bizniki deb atashdi.**  
**Biroq o'tgan yillarning**  
**fe'lin ham aytib o'tay:**  
**Avvalo, qo'rqitdilar,**  
**so'ngra esa talashdi.**

Shoir bulardan o'ksinmaydi. "Lekin mudom talpindim ezgulikka, mehrga", deb taskin topadi. To'shakda yotgan bemor shoir olis vatanidan ko'rgani kelgan singlisi timsolida bunday deb yozadi:

**Sen vatanim mehriini keltirding, Bibisora,**  
**Endi oyoqqa turgum sog'-omon,**  
**o'ynab-kulib.**

**Bilib qo'y, bu mehriini topib bo'lmaydi sira,**  
**Inchunin, ko'ringay gohida singil bo'lib.**

Vatan mehriini qo'rsagan, vatan jamolini sog'ingan shoir uni ko'rgani kelgan singlisi qiyofasida ko'rib, juda ajoyib va bebaho she'r yozgan.

U yana bir she'rini "Vatan sevgisi", deb atagan. "Sev vatanim, sevgin borini, tog'larining qorigacha sev, Cheksiz, tubsiz g'origacha sev", deb da'vat qiladi. She'r so'ngida esa vatanni har qancha sevsak arziydi, lekin vatandoshman, deganning "sevib bo'lmaz barchasin birday", degan tugal xulosa keladi va bu bilan o'z haqiqatiga sodiq qoladi.

Shoirning yana bir "Vatan" degan she'ridagi kutilmagan o'tli misralar kishini hayajonga soladi.

**Vatan qadrin belgilamas oltin yo olmos,**  
**Uni biron sotimas va yo sotib olmas.**  
**Kunchiqarda Xudoyning oliy maqomi,**  
**Kunbotarga borganingda pasayib qolmas.**

Buyuk shoirning mashhur "Vatannoma"siga mehr-muhabbat bilan ko'z tashlashga urindik. Bundan vatanni sevish, ardoqlash, uyg'unlik qo'yish, eng muhim, chin vatanparvar bo'lish uchun bebaho saboqlar olamiz. Bu teran saboqlar yangidan bunyod etilayotgan O'zbekiston va har tomonlama yuksalayotgan vatanimiz taraqqiyotida bizga kuch-g'ayrat bag'ishlaydi. Vatanni sevishga, O'zbekistonni ofatlardan asrashda madadkor bo'lishga hamisha da'vat etadi.

O'zbekistonni, O'zbekiston deb atalmish buyuk vatanni ulug' va donishmand shoir, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovdek toza va pok qalb bilan, mard va fidoyi yurak bilan sevishni, ardoqlashni o'rganayotirmiz. Biz qachonki ulug' shoirning "O'zbekiston — vatanim manim" degan nidosiga yurakdan jo'r bo'lsak, hamisha ona vatanimiz tinch, barqaror va abadiyat sari dadil yuksalaveradi.

**Ashurali JO'RAYEV,**  
**O'zbekistonda xizmat**  
**ko'rsatgan jurnalist**

## O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASI TIZIMIDA "SHAXMAT MAKTABI" FAOLIYATI YO'LGA QO'YILDI

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, buning uchun zarur tuzilmalarni shakllantirish yo'nalishlarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada yurtimiz vakillari xalqaro musobaqalarda tarixiy yutuqlarga erishmoqda.



Xususan, Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz umumjamoa hisobida 13-o'rinni, Osiyo qit'asida 4-o'rinni, turkiya va islom mamlakatlari hamda MDH bo'yicha 1-o'rinni egalladi. O'zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo'lmagan bu kabi yutuqlar sport sohasiga va sportchilarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor samarasidir.

Mazkur yo'nalishlardagi ishlariga munosib hissa qo'shish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi ham turli sohalarida mehnat qilayotgan xodimlar va ularning oila a'zolari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportning ommaviylikini oshirish, ularni sportga keng jalb etish, bu orqali xodimlar salomatligini mustahkamlash, mehnat jamoalarida sog'lom turmush tarzi barqarorligini ta'minlash borasida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlanayotgan bugungi shukuhli kunlarda federatsiyaning Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasida "Shaxmat



maktabi"ning ochilishi bu borada galdagi muhim qadam bo'ldi.

Ushbu maktab yurtimizda shaxmatni yanada rivojlantirish, mehnatkashlar, jumladan, yoshlar o'rtasida shaxmatni ommaviy harakatga aylantirish ishlariga munosib hissa qo'shish maqsadida ochilgan.

O'zbekistonda kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi oldidan amalga oshirilgan ushbu xayrli loyiha natijasida shaxmat ishqibozlari ushbu maktabda

aql gimnastikasi sirlarini bepul o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda sport sohasini, shu jumladan, shaxmat turini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, yoshlarning shaxmat bo'yicha iqtidor va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Buning natijasida shaxmatchilarimiz jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, o'zbek shaxmati salohiyatini

butun dunyoga namoyon etmoqda. Xususan, 2024-yilda Xalqaro shaxmat federatsiyasi reytingida O'zbekiston jamoasi 203 ta davlat orasida 13-o'rinni egalladi va mamlakatimizda xalqaro grossmeysterlar soni 30 nafarga yetishiga erishildi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimida tashkil etilgan "Shaxmat maktabi" ham aholi, ayniqsa, o'quvchi yoshlar o'rtasida shaxmatni keng targ'ib etish bilan birga, yigit-qizlar orasidan mazkur o'yning qiziquvchi yosh iqtidorlarni aniqlab, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, bilim va ko'nikmalarini oshirish, bu orqali kuchli shaxmatchilar yetishib chiqishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Federatsiya tomonidan yurtimizda shaxmatning ommaviylikini oshirish bo'yicha yana bir qator xayrli ishlar rejalashtirilgan. Xususan, mamlakatimiz hududlaridagi mehnat jamoalarida shaxmat klublari tashkil etiladi, korxonalar, tashkilot va muassasalar xodimlari o'rtasida har yili shaxmat bo'yicha tuman — hudud — respublika bosqichlaridan iborat musobaqalar o'tkazish ko'lami yanada kengaytiriladi.

**Muhabbat O'RMONBEKOVA,**  
**O'zbekiston kasaba**  
**uyushmalari federatsiyasi**  
**Matbuot xizmati rahbari**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasi**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.**

37346 nusxada bosildi.  
**Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.**  
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov  
Musahhih: Malohat Mingboyeva  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy